2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 144 (933), 2023-yil 21-iyul, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

PREZIDENT TOSHKENTDAGI INFRATUZILMA LOYIHALARINI KO‘ZDAN KECHIRDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-iyul kuni Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda Tashkent city majmuasida ulkan inshootlar barpo etildi. Ayni paytda uning “Paxtakor” metro bekati tarafida yirik savdo markazi qurilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda bo‘lib, piyodalar va avtomobillar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Kelgusida harakat yanada ko‘payishini inobatga olib, Botir Zokirov va Navoiy ko‘chalari kesishmasida yo‘l o‘tkazgich qurish, piyodalar yo‘laklarini qulaylashtirish zarurligini ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Navoiy, Oybek, Nukus ko‘chalari bo‘ylab yurib, yo‘llardagi sharoitni ko‘zdan kechirdi, odamlar bilan suhbatlashdi.

Transport infratuzilmasi bilan bog‘liq yana bir loyiha — Toshkent xalqaro aeroporti yonidagi ko‘prik. Avtomobillar qatnoviga qulaylikni oshirish maqsadida u kengaytirilib, qo‘shimcha estakada qurilmoqda. Uning uzunligi 650, eni 30 metr bo‘ladi. Aylanma shaklidagi chiqish-tushish yo‘llari qayrilib olish xavfini yo‘qotib, harakatni osonlashtiradi.

Prezidentimiz bu yerdagi qurilish jarayonini ko‘rdi, atrofni ko‘kalamzorlashtirish, manzarali daraxtlar ekish kerakligini aytdi.

Bugun poytaxtimizning Yashnobod tumanida ham bunyodkorlik jadal. Shu bois, yashil bog‘larni saqlab qolish juda muhim. Abdulla Qodiriy va Kichik halqa yo‘li orasidagi Elbek bog‘i ana shunday so‘lim maskanlardan. Davlatimiz rahbari bu bog‘ni asrash, aholining dam olishi uchun sharoitlarni kengaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Toshkent-Sharqiy” aeroporti qurilishini ham borib ko‘rdi.

Bu aeroportning umumiy maydoni 693 gektar. Loyihaga ko‘ra, unda 4 kilometr uzunlikdagi uchish-qo‘nish yo‘lagi, zamonaviy terminallar, samolyotlar uchun angar va perronlar bo‘ladi. Aeroport noqulay ob-havo sharoitlarida ham uchish-qo‘nishni ta’minlovchi ICAO III-A toifasidagi zamonaviy radiotexnika va meteorologiya asbob-uskunalari bilan jihozlanadi.

Bugungi kunda uchish-qo‘nish yo‘lagi va yuqori martabali mehmonlar terminali binosi barpo etilgan. Prezident ularni ko‘zdan kechirdi. Galdagi qurilish ishlarini moliyalashtirish, terminalning tashqi ko‘rinishi va delegatsiyalar uchun qulayliklarni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘zA

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

TARAQQIYOTNING SHIDDATLI YETTI YILI

iqtisodiy islohotlar rivojlanishning yangi davrini boshlab beradi

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Bu, asosan, soliq, bojxona va ma’muriy yukni kamaytirish, eksport-import operatsiyalari tartibini soddalashtirish va turli ruxsatnomalarni olish, pul muomalasi tizimi va bank sektorini takomillashtirishda o‘z ifodasini topmoqda.

Shuningdek, normativ-huquqiy sohada qonunchilikning shaffofligi, o‘zaro muvofiqligi va samaradorligi, mulk daxlsizligini ta’minlash va bitimlarni sud-huquqiy himoya qilishning takomillashtirilishi borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.Bularning hayotdagi samarasini birgina makroiqtisodiy siyosat yo‘nalishida so‘nggi yetti yilda amalga oshirilgan islohotlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan qiyinchiliklarga qaramasdan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining o‘rtacha yillik o‘sishi 2017-2022-yillarda 5,1 foizni tashkil etdi.

Davomi 3-betda

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT

Tarixda shaxslarning o‘rni doimo yetakchi maqomida bo‘lgan. Zero, hokimiyatni amalga oshirayotgan yetakchining siyosati millionlab taqdirlarga belgilovchi ta’sir ko‘rsatib keladi. Ayniqsa, tub o‘zgarishlar, jadal islohotlar sharoitida davlat ahamiyatiga ega qarorlarni qabul qiluvchi shaxsning siyosatdagi roli nihoyatda ortadi. Ayni paytda bu qarorlar ro‘yobi ko‘p ming sonli fuqarolar faolligini taqozo etishi shubhasiz. Demak, islohotlar muvaffaqiyati yetakchining boshqaruv san’ati bilan bir qatorda oddiy fuqarolar sa’y-harakatiga ham bog‘liq bo‘lib qoladi. Har holda demokratiya nazariyalarida shunday uqtiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning yaqinda bo‘lib o‘tgan inauguratsiyasi marosimidagi o‘y-xayollar qo‘limga qalam tutqazdi. 2023-yil 14-iyul kuni **mamlakatimiz o‘z tarixining yana bir yangi bosqichiga qadam qo‘ydi.** Bu davrda hayotimiz yanada jo‘shqin, islohotlarimiz yanada jadal tus oladi, deb xulosa qilishga barcha asoslar bor. Mazkur asos-dalillar Prezident lavozimiga kirishish marosimidagi nutqda baralla yangradi.

Davomi 4-betda

FESTIVAL

“DUNYO SADOLARI”DAN FAYZLI XONOBOD

2-betga qarang.

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

HECH BIR BOLA E’TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

bu tamoyil konstitutsiyaviy asoslangan

1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganidan so‘ng xalqaro hamjamiyat inson huquqlari va asosiy erkinliklariga ustuvor e’tibor bera boshladi. Mazkur deklaratsiya matnida ilk bor barcha odamlar ega bo‘lgan huquqlarning global ta’rifi bayon etildi. Ya’ni ushbu hujjat har bir insonning shaxsiy daxlsizligi, mulk, e’tiqod va so‘z erkinligi, fuqarolik, davlat boshqaruvida qatnashish, saylash va saylanish, oila, mehnat va dam olish, ta’lim, tibbiy, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, madaniyat, san’at asarlaridan bahra olish huquqlarini himoya qiladi.

Davomi 2-betda

NUQTAYI NAZAR

INSON KAPITALIGA YO‘NALTIRILGAN SARMOYA

mamlakat istiqbolini belgilovchi omilga aylanmoqda

Texnologik jarayonlarning muntazam yangilanib borishi, innovatsion rivojlanish va intensiv iqtisodiy o‘sish omillarining tobora ortayotgani vaziyatga tezkor moslashadigan malakali kadrlarga talabni oshirmoqda. Shu bois, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asosan, ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishning to‘rtinchisi sifatida “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” masalasi alohida o‘rin olgan.

Davomi 5-betda

YAQIN O‘TMISH YOG‘DULARI

Yurt egasidan boshlangan adabiyot bayrami

yoxud yosh ijodkorlarning Respublika Zomin seminari tashabbuskori kim edi?

Bir odam qazigan ariqdan ming odam suv ichadi. Bahor yomg‘iri son-sanoqsiz maysalarga mador kiritadi. Buloqdan oqib tushgan jilg‘a irmoqqa, irmoqlar daryoga aylanadi. Daryolar dunyoni yashil liboslarga burkaydi. Baland uchgan burgut nigohi tog‘ning cho‘qqisiga ham tushadi. Yoniq so‘z toshni kukunga, tafti gulni butaga, butani daraxtga aylantiradi...

Davomi 6-betda

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

HECH BIR BOLA E’TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

bu tamoyil konstitutsiyaviy asoslangan

Husniddin XOLMAMATOV, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bosh mutaxassisi

Boshlanishi 1-betda

Deklaratsiya matni ustida dunyoning barcha mintaqalaridan huquqiy va madaniy kelib chiqishi turlicha bo‘lgan vakillar ishladi. Shu bois, deklaratsiya inson huquqlarini himoya qilish va dolzarb global muammolarni hal etish bo‘yicha aniq harakatlar uchun asos yaratuvchi hujjat hisoblanadi. Deklaratsiyani qabul qilgan davlatlar ushbu hujjat va xalqaro huquq normalariga qat’iy rioya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Davlat institutlari butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya etilishini ta’minlashga harakat qiladi.

Deklaratsiya O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish borasida jahon andozalariga mos huquqiy tizim ishlab chiqish uchun tamal toshi vazifasini bajardi. Shu kungacha mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga oid 100 dan ortiq qonun qabul qilingan va ular xalqaro me’yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan.

2023-yil 10-dekabrda insoniyat uchun eng muhim hujjatlardan biri bo‘lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganiga 75 yil to‘ladi. Butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham bu sanani nishonlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 75 yilligi kampaniyasi inson huquqlari universalligi va ajralmasligi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, shuningdek, bu huquqlarni himoya qilish imkoniyatlarini, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kengaytirishga qaratilgan. Ushbu tashabbus deklaratsiyada aks ettirilgan inson huquqlari infratuzilmasini tiklash, mustahkamlash va yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Jahon miqyosidagi bunday tadbirlarga 2022-yil 5-6-dekabr kunlari Samarqand shahrida “Inson huquqlari sohasida ta’lim” deklaratsiyasining 10 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan global forum keng yo‘l ochdi. Shu forumda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligiga bag‘ishlangan global kampaniyaga start berildi. Forum doirasida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz 2023-yil 12-mayda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Mazkur farmon bilan 30 banddan iborat tadbirlar dasturi tasdiqlanib, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni, inson huquqlari sohasidagi ta’limni takomillashtirish hamda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘rin olgan.

Mazkur tadbirlar qatorida BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalari bajarilishi bo‘yicha Milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish va qabul qilish yuzasidan tadbirni alohida ta’kidlab o‘tish muhim.

2022-yil 29-avgust-23-sentabr kunlari BMT Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining 91-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiya doirasida O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini bajarishi yuzasidan Beshinchi davriy hisoboti ham ko‘rib chiqildi.

Sessiyada O‘zbekiston delegatsiyasi a’zolari konvensiya qoidalarining moddama-modda amalga oshirilishi, milliy qonunchiligimizga kiritilgan o‘zgartishlar, jamiyatda bolalar mavqeini yuksaltirish borasida erishilgan yutuqlar haqida batafsil ma’lumot berdi.

Bundan tashqari, sessiya doirasida bola huquqlariga oid kitoblar, risolalar, jurnallar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ko‘rgazmasi tashkil etildi. Bunda ishtirokchilar O‘zbekiston hukumatining bola huquqlarini ta’minlash borasidagi ustuvor yo‘nalishlari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldi. Ular mamlakatimizda bolalarni himoya qilishning milliy mexanizmi yaratilganini olqishladi hamda bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonini ijobiy baholadi.

Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita a’zolari O‘zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qoidalarini bajarishi yuzasidan Beshinchi davriy hisobotini ko‘rib chiqish yakunlari yuzasidan taklif va tavsiyalarini taqdim etdi.

Ko‘mitaning yakuniy mulohazalarida jami 52 tavsiya keltirilgan. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bolalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha qonunchilikni yanada takomillashtirish hamda iqlim o‘zgarishi sharoitida bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha takliflar bildirilgan. Bugungi kunda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan qo‘mitaning yakuniy mulohaza va tavsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejasi loyihasi ishlab chiqildi.

Umuman, bola huquqlarini ta’minlash masalasi O‘zbekiston uchun doim ustuvor maqsadlardan biri bo‘lgan. Mamlakatimizning 1992-yil 9-dekabrda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilishi buning yaqqol namunasidir. O‘zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, “Hech bir bola e’tibordan chetda qolmaydi” degan tamoyilga amal qilmoqda.

Qolaversa, “Inson qadri uchun” tamoyiliga muvofiq o‘tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatimiz Asosiy qonuniga bolalar huquq va manfaatlarini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg‘or normalar kiritildi. Shu tariqa, milliy qonunchiligimiz bolalar huquqlariga doir xalqaro normalarga to‘la-to‘kis muvofiqlashtirildi.

Yangilangan Konstitutsiyamizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, ularning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlat majburiyatlari kengaytirildi.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta’minlashga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar “Bolaning eng yaxshi manfaatlari” tamoyilini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda.

Endilikda bolalarni 13 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortish bekor qilinib, bu 14 yosh etib belgilandi. Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishda pedagog bilan bir qatorda psixolog ham qatnashishi ko‘rsatildi.

2023-yil 11-aprelda qonunchilikka o‘zgartishlar kiritilib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish tariqasidagi insonparvarlik aktlari tatbiq etilmasligi belgilanib, bunday jinoyatlar uchun jazo choralari yanada og‘irlashtirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, bola huquqlari kafolatlarini yanada takomillashtirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga hamohang tarzda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligiga bag‘ishlangan global kampaniyaga start berilishi hamda bu borada normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, bir qancha tadbirlar amalga oshirilayotgani mamlakatimizning xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplarga sodiqligini namoyon qiladi.

FESTIVAL

“Dunyo sadolari”dan FAYZLI XONOBOD

Jazirama issiq tinkani quritayotgan, jamiki jonzot soya-salqin, oromijon maskanlarda jon saqlagisi kelayotgan shu kunlarda “O‘zbekiston Shveysariyasi” deya ta’riflanadigan so‘lim Xonobodga otlanganlar oqimi har qachongidan salmoqli.

Bir yonda — tog‘ning toza havosi, shovullagan zilol suv, tepalikdagi sihatgohlar, bir yonda — shaharda ilk bor bo‘lib o‘tgan “Dunyo sado”lari xalqaro milliy estrada san’ati festivali. Jahon estradasining yorqin yulduzlari — “Dr. Alban”, “Boney M.”, “Fly Project”, “Gafur va Rakhim”lar respublikamizning chekka bir hududiga tashrif buyurishiga ishonmaganlar ham ko‘p bo‘ldi.

Mazkur xalqaro festivalni o‘tkazish taklifi Prezidentimizning 2019-yil Andijon viloyatiga tashrifi davomida turizmni rivojlantirishga doir loyihalar taqdimoti chog‘i ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida ilgari surilgan edi. 2022-yil 3-fevralda esa davlatimiz rahbarining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan 2023-yilda “Dunyo sadolari” xalqaro milliy estrada san’ati festivalini o‘tkazish belgilandi.

Madaniyat va turizm vazirligi mutasaddilari tomonidan festival doirasidagi tadbirlar tashkil etiladigan maydon, sahnalar belgilangach, ularni barpo etish, mehmonlarni joylashtirishga hozirlik ishlari boshlandi. Shaharga olib boruvchi yo‘llarda ta’mirlash, tozalash ishlari bajarildi. Festival logotipi tushirilgan bannerlar, “Xavfsiz shahar” loyihasi doirasida hudud atrofida kuzatuv kameralari o‘rnatildi.

— Xonobodda yashayotganimdan g‘ururlanaman, — deydi Mukarram aya Sotiboldiyeva. — Mana shunday tadbirlar kerak ekan. Shahrimiz azaldan chiroyli, mashhur bo‘lgan. Shu bayram bahona yanada go‘zallashib ketdi. Bog‘larimiz fayziga fayz qo‘shildi, Xonobodimiz yanada obod bo‘ldi.

Xizmatda 30 ta avtobus, 100 ta taksi

Festivalning tantanali ochilish va yopilish marosimiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar badiiy jamoalaridan 400 dan ziyod ishtirokchi jalb etildi. Shuningdek, Chexiya, Bolgariya, Latviya, Polsha, Serbiya, Gruziya, Rossiya, Qozog‘iston, Gretsiya, Tojikiston va boshqa bir nechta davlatdan 30 dan ziyod vakil Xonobodda mehmon bo‘ldi.

Andijon viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i O‘tkirbek Mashrapovning aytishicha, aholini tadbir kunlari transport bilan ta’minlash maqsadida 100 dona maxsus yengil mashina Xonobod shahri ichida mehmonlarga bepul xizmat qildi. Shuningdek, 30 ta zamonaviy avtobus ham mehmonlar ixtiyorida. Xonobodga kirayotgan fuqaro, yo‘lovchilar uchun esa 20 ta jamoat transporti tashkil qilindi. Shahargacha kelgan fuqaroning festivalga yetib kelishida hech qanday muammo kuzatilmadi.

27 metrlik ro‘mol

Tadbirda barcha viloyatlar ijodiy jamoalari, hunarmandlari o‘ziga ajratilgan maydonlarda hududga xos urf-odatlari aks etgan badiiy chiqishlari, hunarmandlik ko‘rgazmalarini namoyish qildi.

Respublika “Hunarmand” uyushmasining Andijon viloyat bo‘limi rahbari O‘tkirbek Arabboyevning bildirishicha, hududlardan 4 nafardan, mezbon viloyatdan esa 40 nafar hunarmand qo‘l mehnati namunalari bilan qatnashdi, ularga barcha sharoitlar yaratib berildi.

Ginnesning rekordlar kitobiga kirish uchun 27 metrlik ro‘mol to‘qigan andijonlik hunarmand Mayramxon opa Hamroboyeva festival bahona o‘z mahsulotini jahon ahliga ko‘rsatayotganidan xursand. Dunyo bo‘yicha qo‘l mehnati orqali yaratilgan bu eng katta ro‘mol tadbir bo‘layotgan hududda joylashgan ikki qavatli savdo majmuasining tom qismiga ilindi. 68 yoshli hunarmand uni qariyb ikki yilda to‘qib bitirgan. Opa 30 kilogramm ip evaziga tayyor bo‘lgan qo‘l mehnati mahsulini Toshkentdagi amaliy san’at muzeyiga topshirmoqchi ekanini bildirdi.

Yana yangi iste’dodlar kashf etildi

14-iyul kuni Xonobod shahar Yoshlar markazida xalqaro tadbirning estrada yo‘nalishida qatnashish istagini bildirganlar uchun respublika saralash bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda 40 dan ortiq guruh va ko‘plab yakkaxon ijrochilar kuch sinashdi.

G‘oliblar festivalning ochilish marosimida tantanali taqdirlandi. Faxrli o‘rin g‘oliblariga diplom, statuetka va pul mukofoti (3-o‘rin — 10 million, 2-o‘rin — 20 million, 1-o‘rin — 30 million so‘m) taqdim etildi. Gran-pri sovrindori esa 40 million so‘m pul mukofoti, diplom, statuetka bilan taqdirlandi. Shuningdek, g‘oliblar festivalning asosiy tadbirlarida ishtirok etdi.

Ta’kidlash joizki, festivallarda yangi-yangi iqtidorlar, iste’dodlar kashf etildi. “Dunyo sadolari” ham yoshlarning milliy estrada san’atiga bo‘lgan qiziqishini orttirishiga shubha yo‘q.

Izboskan tuman 6-Bolalar musiqa va san’at maktabi o‘qituvchilari hamda “Andijon viloyati namunaviy maqom ansambli” sozanda-xonandalari tomonidan “Dr. Alban”, “Boney M.”, “Fly Project”, “Gafur va Rakhim” kabi dunyo yulduzlarining qo‘shiqlari o‘zbek milliy asboblari yordamida ijro etilib, yaxlit, go‘zal ijod namunasi yaratildi. Tadbirning ochilish marosimida o‘zbek milliy kiyimlarida chiqish qilgan “Boney M.” guruhi balki shu kabi kutilmagan sovg‘alardan ilhomlanib, milliyligimizga hurmatini namoyon qilgandir.

Madaniyat va turizm vaziri Ozodbek Nazarbekov, Andijon viloyati hokimi Shuhrat Abdurahmonov bilan birga dunyo yulduzlari ham daraxt o‘tqazish marosimida ishtirok etgani shahar ahli uchun tarixiy voqelik bo‘lib qoladi.

Mehmonlarda yana kelish istagi tug‘ilsa, baxtiyormiz

E’tibor bering-a, chet ellik ishtirokchilar festivalda nafaqat o‘z tillarida, balki o‘zbek tilida ham qo‘shiq ijro etdi. Bu esa o‘zbek san’atini dunyo bo‘ylab targ‘ib qilishda muhim vosita hisoblanadi.

— Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘idagi asosiy sahnadan tashqari yana 4 ta katta sahna tayyorlandi, — deydi Andijon viloyati hokimi o‘rinbosari Nasibullo Mo‘minov. — 1,5 ming kishilik mehmonxona, kichik mehmon uylari shay holatga keltirildi. Nufuzli mehmonlar uchun mashhur Xonobod sanatoriysi xizmat qildi.

Festival doirasida “Turizm xaritasi”ga binoan viloyatdagi 40 ta tarixiy va ziyorat obyektlari orqali hududning sayyohlik salohiyati namoyish etildi. Mazkur obyektlarda ham mehmonlarni munosib kutib olish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rildi.

O‘ylaymizki, Xonobodga ilk bor kelayotgan mehmonlarimizda qaytib kelish istagi tug‘iladi, albatta va biz bundan baxtiyormiz. Zero, asl maqsadimiz ham festivallar orqali yosh avlodni Vatanga muhabbat, milliylik ruhida tarbiyalash, xorijliklarda O‘zbekistonga nisbatan qiziqish uyg‘otishdir.

* * *

18-20-iyul kunlari o‘tkazilgan “Dunyo sadolari” ming-minglab san’atsevar yurtdoshlarimiz qalbiga kirib bordi. Tun yarmiga qadar davom etgan galakonsertlar qalbi qaynoq yigit-qizlarni sho‘x raqslarga undadi. Manzillar obod, ko‘ngillar shod bo‘ldi. O‘zbek va jahon estradasining yorqin yulduzlari hamisha go‘zal va navqiron Xonobod osmonida so‘nmas nur sochdi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

Iqtisodiyot sohasida ham tub burilishlarni amalga oshiramiz. “Yashil iqtisodiyot”, “yashil energiya” tamoyillarini yanada keng joriy etamiz. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini bir necha barobar oshiramiz...

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

TARAQQIYOTNING SHIDDATLI YETTI YILI

iqtisodiy islohotlar rivojlanishning yangi davrini boshlab beradi

Nodir JUMAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Bu ko‘rsatkichning o‘zaro qiyosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur davrda jahon iqtisodiyoti o‘rtacha yillik 2,8 foizga, rivojlanayotgan davlatlar 3,6 foizga, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari esa 4,5 foizga o‘sganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM hajmi 2018-yildagi 1 ming 597 dollardan 2022-yilda 2 ming 255 dollargacha oshdi.

Ushbu davrda 120 milliard dollarlik asosiy kapitalga investitsiyalar kiritildi, kredit qo‘yilmalar hajmi 3,6, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari 4 barobar oshib, inflyatsiya darajasi 2017-yildagi 18,8 foizdan 2022-yilda 12,3 foizgacha pasaydi. 2017-yilda boshlangan “zaxiralar neytralligi” prinsipi qo‘llanilishiga qaramasdan, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari hajmi 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 35,8 milliard dollarni tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi.

Valyuta bozorini erkinlashtirish samaralari

Qisqa davr ichida muvofiqlashtirilgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, risklarni boshqarish va barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ulardan foydalanish mexanizmi joriy qilindi. Jumladan, bank tizimidagi tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etish yo‘nalishida qo‘yilgan eng muhim qadamlardan biri ichki valyuta bozorining erkinlashtirilishi hamda bu boradagi barcha mavjud muammo va to‘siqlarning bartaraf etilishi bo‘ldi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi natijasida parallel bozor (qora bozor) kursiga barham berildi va valyuta kursining barqarorligi ta’minlandi. Bu esa, valyuta operatsiyalarini erkin amalga oshirishda internet va onlayn banking xizmatlaridan foydalanib, uydan chiqmagan holda valyuta xarid qilish imkoniyatini yaratdi.

Taqqoslash uchun keltirib o‘tamiz: 1998-2017-yillarda norasmiy bozorda valyuta almashinuv kursining yillik qadrsizlanishi o‘rtacha 20-30 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-2022-yillarga kelib, 6-7 foizni tashkil etdi. Natijada jismoniy shaxslar tomonidan ayirboshlash shoxobchalari orqali xorijiy valyuta sotish hajmi 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 14 barobar oshib, 11,9 milliard dollarga hamda xorijiy valyutani sotib olish hajmi 8,9 milliard dollarga yetdi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o‘tkazilishi belgilandi va inflyatsiya darajasini 2024-yil yakuni bilan 5 foiz darajaga tushirish maqsadini (target) o‘rnatish tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2018-yilda inflyatsiya darajasi 18,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, inflyatsiyani targetlash siyosati natijasi o‘laroq, 2020-yilda iste’mol narxlari indeksi darajasi 11,1 foizga tushdi. 2023-yil yakuniga kelib 9,5-10 foiz va 2024-yil yakuniga qadar 5 foizlik maqsadli ko‘rsatkichga erishish kutilyapti.

Shu bilan birga, fiskal siyosat samaradorligini oshirish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, tashqi shoklar va islohotlar natijasida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni boshqarishning yetarlicha moslashuvchan shart-sharoitlarini ta’minlaydigan fiskal qoidalar ishlab chiqildi.

Bank sohasi barqarorligini ta’minlash va risklarni boshqarishga asoslangan banklar faoliyatini nazorat qilishning prudensial tizimi yo‘lga qo‘yildi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlarni jalb qilgan holda bank tizimini nazorat qilishning Xalqaro Bazel qo‘mitasi talablariga muvofiqlashtirish choralari ko‘rildi. Xususan, so‘nggi 7 yil davomida banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shu jumladan, davlat ulushiga ega banklar kapitaliga 4,8 milliard dollar mablag‘ yo‘naltirilishi hisobiga ularda yetarli miqdorda makroprudensial buferlar shakllantirildi.

Bank tizimi jami kapitali 2017-yilga nisbatan 8,9 barobar, shu jumladan, ustav kapitali 14,2 barobar oshib, mos ravishda 80 trillion so‘mga va 59 trillion so‘mga yetdi. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish usullari va mexanizmlarining o‘zgarganligi hamda ularga ishonchning ortishi hisobiga ushbu davrda banklardagi depozitlar umumiy hajmi 3,8 barobar, jumladan, aholi omonatlari 5,6 barobar oshdi.

Qulay biznes muhiti — tadbirkorlik rivojining muhim asosi

Tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va doimiy ish o‘rinlarini yaratish maqsadida 2017-2022-yillarda tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, biznes yuritishni yengillashtirish, ma’muriy to‘siqlarni olib tashlash, litsenziyalash jarayonini soddalashtirish, tadbirkorlarga moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, xususiy mulk huquqi daxlsizligini ta’minlash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rildi. Mustahkam huquqlar yangilangan Konstitutsiya normalari bilan alohida belgilab qo‘yildi.

Natijada biznesni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun talab etiladigan tartibotlar soni 3 tagacha, sarf qilinadigan vaqt esa 5,5 kundan 3 kungacha qisqardi, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar 3,2 foizdan (aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ulushi) 2,2 foizgacha kamaydi.

Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish uchun 37 turdagi litsenziya va 10 turdagi ruxsatnoma bekor qilindi. 16 ta litsenziya va 11 ta ruxsatnoma boshqa hujjatlar bilan birlashtirilishi orqali qisqartirildi. 31 ta litsenziya va ruxsatnoma olish o‘rniga xabardor etish tartibi o‘rnatildi. Elektr ta’minotiga ulanish uchun tartibotlar soni 7 tadan 4 tagacha, xarajatlar esa 3 barobar kamaydi.

Biznes va sog‘lom raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan faol soliq siyosati olib borish uchun soliq ma’murchiligi soddalashtirilib, soliq yuki qisqartirildi. Jumladan, soliq turlari 13 tadan 9 taga, soliq tekshiruvlari turlari 13 tadan 2 taga qisqartirildi. Soliq hisoboti shakllari, shuningdek, ularning ilovalari 15 tadan 11 taga kamaydi. Aylanmadan davlat maqsadli jamg‘armalarga jami 3,2 foizli olinadigan majburiy ajratmalar bekor qilindi. Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi kichik korxonalar uchun 15 foizdan 12 foizgacha, byudjet tashkilotlari va davlat korxonalaridan tashqari yirik korxonalar uchun 25 foizdan 12 foizgacha, foyda solig‘i stavkasi 14 foizdan 12 foizgacha, qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 12 foizgacha, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 5 foizdan 2 foizgacha, yagona soliq to‘lovi stavkasi 5 foizdan 4 foizga pasaytirildi.

> **BANK TIZIMI JAMI KAPITALI 2017-YILGA NISBATAN 8,9 BAROBAR, SHU JUMLADAN, USTAV KAPITALI 14,2 BAROBAR OSHIB, MOS RAVISHDA 80 TRILLION SO‘MGA VA 59 TRILLION SO‘MGA YETDI. AHOLI VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA XIZMAT KO‘RSATISH USULLARI VA MEXANIZMLARINING O‘ZGARGANLIGI HAMDA ULARGA ISHONCHNING ORTISHI HISOBIGA USHBU DAVRDA BANKLARDAGI DEPOZITLAR UMUMIY HAJMI 3,8 BAROBAR, JUMLADAN, AHOLI OMONATLARI 5,6 BAROBAR OSHDI.**

Shu bilan birga, teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 84 turdagi soliq imtiyozlari bekor qilinib, individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Mazkur tizim o‘rniga yangisi joriy etilib, soliqlarni to‘lash muddatini o‘zgartirish, kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat berish vakolati xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazildi.

Paxta, bug‘doy va monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan 27 turdagi yuqori likvidli tovar, xomashyo hamda materiallarni faqat birja savdolari orqali sotish mexanizmi joriy etildi.

2017-2022-yillarda tijorat banklari tomonidan 82 milliard dollar ekvivalentida kreditlar ajratildi. Taqqoslaydigan bo‘lsak, 2016-yilda banklar tomonidan 6 milliard dollarlik kreditlar ajratilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 16,5 milliard dollarga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, sog‘liqni saqlash va boshqa infratuzilma loyihalariga jami 8 milliard dollardan ortiq mablag‘ jalb qilindi hamda davlat korxonalari

transformatsiyasi va xususiylashtirish jarayoni sezilarli tezlashdi.

Pirovardida, 2017-2022-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror o‘sish sur’atlari ta’minlandi. Xususan, sanoat mahsulotlari 1,4 barobar, qishloq xo‘jaligi 1,2 barobar, bozor xizmatlari va qurilish ishlari 1,9 barobar oshdi. Sanoat tarmoqlarida diversifikatsiya qilish jarayonini tezlashtirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish, birinchi navbatda, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq strategik vazifalarni hal etishga qaratilgan e’tibor mana shunday ijobiy samaraga zamin yaratdi. Maxsus iqtisodiy yoki kichik sanoat zonalari, texnopark va klasterlar shaklidagi korxonalarning hududiy birlashmalar tizimi shaklantirildi. Mazkur davrda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar hisobiga ular soni 20 taga, klasterlar soni 506 taga, kichik sanoat zonalari soni 317 taga yetdi. Ular tomonidan yaratilgan mahsulotning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi erkin iqtisodiy zonalarda 4,9 foizni, klasterda 5,2 foizni hamda kichik sanoat zonalarida 1,2 foizni tashkil etdi. Natijada sanoatning YAIMdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizgacha barqaror o‘sishi ta’minlandi.

Bozor tamoyillariga moslashayotgan agrar tarmoq

Qishloq xo‘jaligida resurs tejovchi texnologiyalarni, tarmoqda mulkchilikning yangi shaklini joriy etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tizimli choralar natijasida mahsulot yetishtirish yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati 2,5 foizni tashkil etdi. 394,3 ming gektar maydon qayta foydalanishga kiritildi, 256,3 ming gektarda suv tejovchi zamonaviy texnologiyalar, 146,8 ming gektarda esa egiluvchan quvurlar joriy etildi.

Suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish maqsadida tomchilatib sug‘orish uskuna va jihozlarini ishlab chiqaruvchi 25 ta korxona tashkil etildi. Mahalliylashtirish darajasi 60 foizga yetkazildi va bir gektar suv tejovchi uskunalar narxi 5 ming dollardan o‘rtacha 2 ming dollargacha pasaydi. Agrar sohada klaster va kooperatsiyalar faoliyati rivojlantirilib, 463 ta agroklaster faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Agrar sohani raqamlashtirish bo‘yicha qariyb 559 ming gektar paxta va g‘alla maydoni konturlar kesimida, ekin turlari nomi va boshqa ma’lumotlari raqamli platformaga joylashtirilib, onlayn monitoring qilish imkoni yaratildi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarni xususiylashtirishga qaratilgan islohot natijasida esa, 1 ming 814 gektar yer auksion savdolarida realizatsiya qilindi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar aholi daromadlarining oshishiga ham xizmat

qilyapti. Xususan, so‘nggi 2 yilda bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati o‘rtacha 15 foizni tashkil etdi.

Asosiy maqsad — iqtisodiy barqarorlik hamda inklyuziv rivojlanishni ta’minlash

Albatta, bitta maqolada islohotlar samarasi haqida batafsil yozish imkonsiz. Boshqa tomondan esa, Prezidentimiz joriy yil 14-iyul kuni o‘z lavozimiga kirishishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’kidlaganidek, **“Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi.**

Yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma’noda yangi davr bo‘ladi”.

Davlatimiz rahbari joylarda o‘tkazilgan saylovchilar bilan uchrashuvlarda yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlariga doir maqsadlarni xalqimiz e’tiboriga havola qildi. Unga asosan, 2024-2030-yillarda YAIM yillik o‘sish sur’ati o‘rtacha 6-7 foiz atrofida bo‘lishi va uning hajmini 160 milliard dollarga yetkazish orqali O‘zbekistonni o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kiritishga qaratilgan islohotlar amalga oshiriladi.

Alohida qayd etib o‘tish joizki, 2020-yilda boshlangan pandemiya hamda bugungi kunda davom etayotgan geosiyosiy tanglikka qaramasdan, O‘zbekiston iqtisodiyoti mustahkamligi va bardoshliligi bilan rivojlanishda davom etmoqda. Biroq dunyo iqtisodiyotida bugungi kunda kuzatilayotgan murakkab vaziyat va uning rivojlanishi bilan bog‘liq noaniqliklar, yirik iqtisodiyotlar orasidagi tarqoqlik iqtisodiyotimizni rivojlantirish bo‘yicha konseptual yondashuvlarni muntazam qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli, kelgusi 7 yilda eng asosiy maqsad, bu — iqtisodiy barqarorlikni hamda inklyuziv rivojlanishni ta’minlash hisoblanadi. Unga erishishda kambag‘allikni qisqartirishdan keyingi bosqich, ya’ni mamlakatimiz aholisining iqtisodiy jihatdan o‘ziga to‘qligini mustahkamlash va buning uchun zarur sharoitlar yaratishga asosiy e’tibor qaratiladi. Ushbu maqsadlarga erishishda quyidagi muhim yo‘nalishlardagi muammolarni hal etish talab etiladi.

Energetika barqarorligi yo‘lida

Jumladan, bu borada birinchi navbatda, aholi va tadbirkorlarimizni barqaror energiya resurslari bilan ta’minlash zarur. 2030-yilga borib iqtisodiyot tarmoqlari va aholining tabiiy gaz yillik iste’moli hozirgi 56 milliard metr kubdan 70 milliard metr kubga, elektr energiyasi iste’moli esa 70 milliard kilovatt-soatdan 138 milliard kilovatt-soatga yetadi.

Shuning uchun aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlashni inobatga olgan holda, tarmoqda bozor mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Ya’ni iste’molchilarni barqaror va uzluksiz energiya resurslari bilan ta’minlash, bunda monopol holat vujudga kelishining oldini olish choralari ko‘riladi, iste’molchilarga tanlash imkoniyati yaratiladi. Energetika resurslari ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilar o‘rtasida ulgurji bozorini shakllantirish hamda iste’molchilarga yetkazib berishda xususiy operatorlar jalb etiladi.

Yangi energiya resurslari ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishini hisobga olib, hududlarda ma’nan eskirgan uzatish va taqsimlash tarmoqlarini yangilash dasturi ishlab chiqiladi. Sohani raqamlashtirish orqali iste’molchilarga energiyaning uzluksiz yetkazib berilishi ta’minlanadi.

Keyingi masala bu ichki va tashqi transport aloqalari bilan bog‘liqlikni ta’minlash hisoblanadi.

Agar kelgusi 7 yilda aholimiz 41 million, xorijiy sayyohlar soni esa 16 millionga yetishi hamda iqtisodiyotning 1,6 barobar o‘sishini inobatga olsak, aholi va iqtisodiyotning transport infratuzilmasiga bo‘lgan talabini qondirish uchun sohani rivojlantirishga yangicha yondashish zarur bo‘ladi.

Navbatdagi yana bir muhim masala esa, tanqisligi ortib borayotgan suv resurslaridir. Tahlillarga ko‘ra, ekologik sharoitning o‘zgarishi natijasida yaqin kelajakda Markaziy Osiyo hududida suv bilan bog‘liq muammolar kuzatilishi prognoz qilinmoqda. Xususan, 2025-yilda yurtimizda jami suv miqdori 2022-yildagi 55,7 milliarddan 54 milliard kub metrga, 2030-yilga borib esa 49,5 milliard kub metrgacha kamayishi hisob-kitob qilingan. Shu bois, qishloq xo‘jaligiga suvni yetkazish va taqsimlash infratuzilmalarini modernizatsiyalash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi hamda tarmoqqa suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llashda bozor tamoyillari asosida rag‘batlantirish orqali suvdan foydalanish samaradorligi oshiriladi.

Jumladan, 2030-yil yakuniga qadar 1 million gektar maydonga suv tejamkor texnologiyalar joriy qilinadi, 644 ming gektar yer lazerli tekislanadi. Har bir hududning yer osti suvlarining gidroekologik xaritasini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish choralari ko‘riladi.

Qishloq xo‘jaligida yerga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish ham muhim masalalardan biri bo‘lib, bu borada yer resurslaridan samarali foydalanish va sohada innovatsiyalarni qo‘llash uchun zarur sharoit yaratiladi. Xususan, qishloq xo‘jaligi yerlari hosildorligini oshirishni rag‘batlantirish, yerga bo‘lgan huquqni yanada mustahkamlashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

Kelgusi 7 yilda davlat moliyaviy va investitsiyaviy resurslariga tayangan iqtisodiy o‘sish modelidan xususiy investitsiyalarga asoslangan iqtisodiy o‘sish modeliga o‘tishda biznes muhitini yaxshilash va xususiy investitsiyalar oqimini oshirishga qaratilgan choralar davom ettiriladi. Bunda, birinchi navbatda, davlat korxona va banklarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayoni amaliyotga izchil joriy qilinadi. Natijada xususiy sektor uchun bank kreditlaridan foydalanishda imkoniyatlarni kengaytirish hamda banklarning moliyaviy holatini yaxshilashga erishiladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda urbanizatsiya jarayoni inobatga olinib zarur infratuzilma bilan ta’minlanadi, har bir loyihaga shaharsozlikning bosh rejasidan kelib chiqib kompleks yondashiladi. Bunda 2024-yilga qadar aholi punktlari rekonstruksiya, renovatsiya va konservatsiya zonalariga ajratilib, soddalashtirilgan tartibda bosh rejasini ishlab chiqish tizimi joriy etiladi. Kelgusi 7 yilda aholi o‘sishi hisobga olinsa, yiliga o‘rtacha 14 million yoki jami 98 million kvadrat metr uy-joyga talab bo‘ladi. Mazkur talabni qondirish uchun mavjud eski va avariya holatidagi uylar o‘rnida yangi ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish, ya’ni renovatsiyani amalga oshirish bo‘yicha alohida tartib joriy etiladi.

Kelgusida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun yashil o‘sishga o‘tishning fundamental asoslari yaratiladi. Tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlari, strategiyalar va yirik investitsion loyihalarni “yashil” iqtisodiyot, shu jumladan, issiqxona gazi tashlanmalari miqdori, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvi tamoyillari (ESG) asosida amalga oshirish tartibi joriy etiladi.

Uzoq muddatli “yashil” va kam uglerodli rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini inobatga olgan holda, iqtisodiy va fiskal yo‘qotishlarni kamaytirish hamda samaradorlikni oshirish maqsadida kam uglerodli rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Jahon bozorlariga integratsiyalashuv jarayoni tezlashadi

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi turmush sharoitini inobatga olgan holda, individual va samarasiz soliq hamda bojxona imtiyozlari butunlay bekor qilinadi. Bunda soliq imtiyozlari samaradorligi soliq bazasi, investitsiyalar hajmining o‘sishi va yangi doimiy ish o‘rinlari yaratilishiga qarab baholanadi. Soliq tizimiga axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish va insofsiz to‘lovchilar bilan ishlashni kuchaytirish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

Muhim yo‘nalishlardan yana biri jahon bozorlariga integratsiyani kuchaytirish hisoblanadi. Shu bois, bojxona tartib-taomillari Jahon savdo tashkiloti talablariga moslashtirilib, milliy qonunchilik va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish amaliyotini JST qoidalari bilan uyg‘unlashtirish tezlashtiriladi.

Sir emas, kredit hajmini oshirish, foizini esa tushirish — tadbirkorlar kutayotgan eng katta masala. Binobarin, chet el banklarini olib kirish, yangi xususiy banklar ochishni rag‘batlantirish hamda depozitlarni kengaytirish hisobiga kreditlar uchun resurs bazasini keskin oshirishga asosiy maqsad sifatida qaralyapti. Kichik biznes uchun 14 foizdan oshgan kredit foiz xarajatlarini Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi qoplab beradi.

Har bir tumanda kamida 1000 ish o‘rni yaratadigan 2 tadan yangi sanoat zonalari tashkil etiladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish shartlari 15 tadan 5 taga qisqartiriladi, 107 ta davlat xizmati bo‘yicha to‘lovlar miqdori 2 barobar qisqartiriladi, 10 million so‘mdan yuqori soliq sanksiyalari faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz yuqori sur’atlarda o‘sishining asosiy omillaridan biri — sanoat tarmoqlari rivojlanishi bo‘ldi. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, 2030-yilgacha mis ishlab chiqarish 3,5 barobar, oltin — 1,5, kumush va uran 3 barobar oshiriladi.

Shuningdek, kelgusi yetti yillik rejaga asosan Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etiladi. 2030-yilga qadar avtomobillar ishlab chiqarish 1 million donaga ko‘paytiriladi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hozirgi 50 milliard dollardan 110 milliard dollargacha, eksport hajmi 14 milliard dollardan 30 milliard dollargacha oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekiston islohotlari o‘zining samaradorligi bilan insonlar va mamlakatimiz hayotida o‘ziga xos ijobiy iz qoldirdi. Davlatimiz rahbari tomonidan taklif etilayotgan yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan islohotlar esa rivojlanishning yangi to‘lqinini, jadal taraqqiyotimizning yangi davrini boshlab berishi shubhasiz. Demak, Prezidentimiz aytganidek, bu yo‘lda “Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori”dir.

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT

Otabek HASANOV,
siyosiy fanlar doktori

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonni ijtimoiy davlatga aylantirish, islohotlar markazini mahallaga ko‘chirish, konstruktiv muxolifat faoliyatini kafolatlash, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, ishlab chiqarish industriyasi kuchli rivojlangan davlatga aylanish kabilar nutqda tilga olingan masalalar ro‘yxatining ayrimlari, xolos. O‘sha kuni **davlatimiz rahbari asosiy nyusmeykerga aylandi.**

“Faqat dehqonchilik bilan kun ko‘radigan mamlakat bo‘lib qolmasligimiz kerak”

Ma’ruzada mamlakatimiz rivoji bilan bog‘liq eng o‘tkir, eng dolzarb, eng muhim masalalar ko‘tarildi, ularning yechimlariga yo‘naltirilgan hamda aniq raqamlar bilan o‘lchanadigan marralar (zamonaviy menejmentda bunday maqsadlar SMART-maqsad, deb ataladi) belgilandi. Mana shu maqsadlardan biri: “**Biz 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek juda katta marra oldik**”. Aytilishi oson, lekin bajarilishi nihoyatda murakkab bo‘lgan bu maqsadga erishishning o‘zi bo‘lmaydi, albatta. Aniq hisob-kitoblarga tayanadigan bo‘lsak, yalpi ichki mahsulot hajmini 80,4 milliard dollardan (2022-yilda) ma’ruzada ta’kidlangan raqamga yetkazish deyarli **ikki barobar (!) o‘sish**ni nazarda tutadi. Va bunday sakrashga bor-yo‘g‘i 7 yilda erishish talab etiladi.

Bu marrani belgilashda davlatimiz rahbari ko‘p hisob-kitoblarga tayangani, imkoniyatlarimizni sarhisob qilgani, xalqning safarbarligiga ishongani aniq. Ma’ruzada bu haqda shunday deyildi: **“Biz faqat dehqonchilik bilan kun ko‘radigan mamlakat bo‘lib qolmasligimiz kerak. Biz ishlab chiqarish industriyasi kuchli darajada rivojlangan davlatga aylanishimiz zarur... Biz nafaqat mohir paxtakor va bog‘bonlar o‘lkasi, balki yuqori malakali IT mutaxassislar, injener va energetiklar, konchi va metallurglar, fizik va kimyogarlar mamlakati bo‘lishimiz kerak”.** To‘g‘ri-da, dunyoda to‘rtinchi sanoat inqilobi avjiga chiqayotgan, sun’iy intellekt inson bilan raqobatga kirishgan bir paytda dehqonchilikni rivojlantirish evaziga taraqqiy etib bo‘lmasligi muqarrar. Shu bois, Prezidentimiz **INSON, uning salohiyati va faolligini islohotlarning eng muhim drayveri** sifatida tanlamoqda. Besh strategik maqsadni o‘z ichiga olgan Saylovoldi dasturida dastlabki maqsad sifatida inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadi tanlanishi ham bejiz emas, albatta. Qolaversa, Prezidentimiz davlat boshqaruviga kelgandayoq ilgari surilgan o‘zak-g‘oya: “**Inson qadri uchun**” g‘oyasi o‘zgarishsiz qoldi.

“Bugungi zamon — bu kechagi zamon emas”

Haq gap. Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o‘zgardi. O‘zbekiston xalqi kechagi xalq emas. Bugungi xalq majburiy mehnatga javoban jimgina rozi bo‘lmaydi, haqqini talab qiladigan xalq. Bugungi xalq “Tashabbusli budjet” jarayonida faol qatnashib, mahallasining muammolarini baholi qudrat o‘z kuchi bilan hal qilayotgan xalq. Bugungi xalq nobop ishlar haqida bong urib, ularni to‘xtatishga qudrati yetayotgan xalq. Bugungi xalq zurriyodlarining ertangi taqdiri haqida qayg‘urib, har bir novda-niholni o‘z himoyasiga olayotgan xalq.

Bugungi xalq masjidlarda baralla aytilayotgan azonlar bilan namoz o‘qishga chorlanayotgan xalq. Bugungi xalq Umra safariga borayotganlar soni bo‘yicha rekord qo‘yayotgan xalq. Bugungi xalq o‘z farzandining biri bo‘lmasa, boshqa oliy o‘quv yurtiga kirishiga ishonadigan, bir necha yil umrini yo‘qotmasligidan xotirjam xalq. Bugungi xalq boshliqlarning xatolarini ayamasdan tanqid qila oladigan, kerak bo‘lsa, o‘zidan kechirim so‘rattiradigan qudratga ega xalq. Bugungi xalq amaldorlar “katta odam” emas, balki xalq xizmatiga yollangan odam ekanini tushunib yetgan xalq. Bugungi xalq jamiyatdagi har qanday adolatsizlikka barham berilishiga ishonadigan xalq. Eng muhimi, **“Odamlarimiz katta maqsadlarga intilishdan, tashabbus ko‘rsatishdan, yangilik yaratishdan qo‘rqmayapti”.**

Xalqimiz ongi va dunyoqarashi o‘zgarganini davlatimiz rahbari **“eng katta yutug‘imiz”** deya baholadi va “**O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi**”, degan xulosani ilgari surdi, odamlarga shu tahlit motivatsiya berdi.

Kechagi kun bilan bugungi kun o‘rtasidagi farq shu qadar kattaki, olti yarim yilda amalga oshirilgan o‘zgarishlarni, erishilgan yutuqlarni ko‘rib, Prezident ko‘p-ko‘p takrorlaydigan ibora beixtiyor tilga keladi: **“Bo‘lar ekan-ku”**. Demak, kelgusi yetti yil uchun ham qanchalik baland marra belgilamaylik, maqsadlarimizga yetishimiz, qo‘yilgan vazifalarni uddalay olishimiz aniq. Kelgusi 7 yilda ham “Bo‘lar ekan-ku”, degan e‘tiroflarga loyiq ishlar bisyor bo‘lishiga ishonchimiz komil. Lekin buning o‘z shartlari bor. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, **“...Bugungi keskin raqobat olamida kechagi mezon va yondashuvlar bilan rivojlanib bo‘lmaydi. Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi. Yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma’noda yangi davr bo‘ladi”.**

“36 millionlik xalq uchun shaxsiy javobgarlik”

Hayot o‘zgaruvchan. O‘zgarishlar uzluksiz tabiatga ega bo‘ladi va o‘zaro bog‘liqlikda yuz beradi. Ya’ni **bir sohadagi o‘zgarishlar boshqa sohalarda ham o‘zgarishlar keltirib chiqaradi**. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlar navbatdagi qator o‘zgarishlar uchun katalizator vazifasini bajardi. 2023-yil 9-iyul kuni bo‘lib o‘tgan Prezident saylovi ham Konstitutsiyaviy islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Saylov natijalariga ko‘ra, Shavkat Mirziyoyev 87,05 foiz ovoz bilan 7 yil muddatga Prezident etib qayta saylandi.

87,05 raqamida gavdalangan saylov natijalari nimani anglatadi? **Birinchidan**, bu raqam xalqning shu vaqtgacha O‘zbekistonda yuz bergan o‘zgarishlarga munosabatini, yana ham aniqrog‘i, ijobiy munosabatini ifodalaydi. **Ikkinchidan,** bu raqam shu tahlit o‘zgarishlar mamlakatimizda bardavom bo‘lishi istagi ustuvor ekanini namoyon etadi. **Uchinchidan,** bu raqam O‘zbekistonda tub va jadal islohotlarni boshlab bergan va ularning boshida turgan yetakchi bu o‘zgarishlarni oxiriga yetkazishi zarurligini ko‘rsatadi**. To‘rtinchidan**, bu raqam hokimiyatning legitimligini oshiruvchi va mustahkamlovchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Va nihoyat, **beshinchidan**, bu raqam xalqning o‘z yetakchisiga ishonchini namoyon etdi. Bunday ishonchga sazovor bo‘lishning yuki esa nihoyatda og‘ir. Bu odamlarning ishonchini oqlash kelgusi 7 yillikda halovatsizlik, doimiy tarang asablar, bedor kechalar, o‘nlab tashrif, yuzlab uchrashuv, minglab qaror, qisqasi, doimiy faollik holatiga shaylanishni nazarda tutadi.

Xalq ishonchini qozonish siyosatning nihoyatda qimmat resurslardan biri sanaladi. Hukmdorlarga ishonch va ularning xalq hurmatiga sazovor bo‘lishi masalasiga Konfutsiy o‘z davrida katta e’tibor qaratgan edi. Shogirdi Szi Gunning boshqaruv mohiyatiga oid savoliga javoban donishmand shunday deydi: “Yaxshi boshqariladigan davlatda oziq-ovqat yetarli bo‘lishi kerak, qurol-aslaha yetarli bo‘lishi kerak va xalq o‘z hukmdoriga ishonishi kerak. O‘tkir zarurat tug‘ilganida qurol-aslahadan, oziq-ovqatdan voz kechish mumkin, lekin xalq ishonchidan aslo voz kechib bo‘lmaydi. Negaki, bunday ishonchdan mahrum davlat qiyinchiliklarga dosh bera olmaydi”.

Xalq ishonchi qozonildi. Endi bu ishonchni oqlash kerak. Aniqrog‘i, 87,05 foiz

Prezidentga tikilgan umidvor nigohlarning ishonchini oqlash kerak, ularning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lish kerak. Ular esa davlatimizdan amaliy ishlar kutmoqda, salmoqli, samarali ishlar kutmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, **“Millionlab insonlar — ota-onalarimiz, opa-singillarimiz, o‘g‘il-qizlarimiz bugun bizga umid va ishonch bilan ko‘z tikib turibdi. Ana shunday umid va ishonchni oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi natijalar bilan mustahkamlash bizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi shart”.**

“Tizim o‘zgaradi, vaziyat o‘zgaradi, samaradorlik o‘zgaradi”

O‘zgarishlar takomilni, taraqqiyotni, yuksalishni nazarda tutadi. Globallashuv jarayoni va hayot sur’ati jadallashuvi o‘zgarishlarni, yangilanishlarni muqarrar qilib qo‘ydi. Taraqqiyot shiddati ortda qolayotganlarni ayovsiz jazolamoqda, tezkor bo‘lishga, vaqtdan o‘zishga, zamondan ilgarilashga undamoqda. Shu nuqtayi nazardan, kelgusi 7 yillikda O‘zbekistondagi hayot mazmuni o‘zgarishi, jarayonlar yangicha sifat kasb etishi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yanada demokratlashuvi muqarrar. Chunki **Saylovoldi dasturida belgilangan marralar yangi vazifalar sifatida kun tartibidan o‘rin oldi**.

Kun tartibidagi vazifalardan biri — **ijtimoiy davlat qurish** bilan bog‘liq. Tan olish kerak, bu — amalga oshirilishi nihoyatda mashaqqatli, davlatga qimmatga tushadigan va qaror qabul qiluvchilardan favqulodda javobgarlik talab etadigan g‘oya. Ijtimoiy davlatda moddiy boyliklar ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq taqsimlanadi, har bir fuqaro uchun munosib hayot darajasi ta’minlanadi, ehtiyojmandlarga ko‘mak beriladi. Bularning barchasi uchun mas’uliyat davlat zimmasiga yuklanadi.

Ijtimoiy davlat mohiyatini aks ettirish uchun ayrim olimlar uni “ommaviy rohat-farog‘at davlati” deb, boshqalari “homiy-davlat” deya talqin qiladi. Ijtimoiy davlat byurokratiya, korrupsiya, qonunsizlik kabi illatlarga toqatsiz bo‘ladi. Ijtimoiy davlatning qurilishi byudjetga katta yuklama bo‘lib tushadi, chunki yalpi ichki mahsulotning anchagina qismi sotsial siyosatga yo‘naltiriladi. Garchi chiqimdor va o‘ta murakkab bo‘lsa-da, ijtimoiy davlat nihoyatda insonparvar, xalqchil, fuqarolarning manfaat-ehtiyojlarini maksimal darajada qondiradigan model hisoblanadi. **“INSON QADRI”** bunday davlatning markaziy masalasiga aylanadi, inson kapitalini rivojlantirish davlatning birlamchi vazifasi sifatida tan olinadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yangi marralarga erishishda boshqaruv kadrlari oldiga qo‘yiladigan **talablar** ham belgilab berildi. Bular quyidagilar:

— avvalgidan ikki-uch karra ko‘proq g‘ayrat va shijoat bilan ishlash;

— potensial xavf-xatar, to‘siq va g‘ovlarni e’tiborga olish hamda ulardan betalafot o‘tish choralarini ko‘rish;

— yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklardan zarur xulosalar chiqarish;

— xalq kutayotgan, davr talab etayotgan yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surish;

— tobora taqchil bo‘lib borayotgan resurslar, mavjud imkoniyatlar va salohiyatdan oqilona foydalanish;

— har qanday muammoni aql bilan, ilm-fan yutuqlariga tayangan holda hal qilish;

— jamiyat bilan doimiy muloqotda bo‘lish, xalqimiz bilan bamaslahat ish yuritish.

Tizim o‘zgarishi uchun, vaziyat, samaradorlik o‘zgarishi uchun Prezidentimiz aytganidek, **“Parlamentimiz, hukumatimiz, vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar o‘zlarining kelgusi faoliyatlarini mana shu omillarning barchasini inobatga olgan holda tashkil etishlari zarur”.** Boshqa yo‘l yo‘q.

Noqobil rahbarlar bilan xayrlashuv

Prezidentimiz davlat boshqaruviga kelishi bilan rahbar kadrlarda uchraydigan illatlarga qarshi murosasiz kurash boshladi. Dastlab ulardan yumshoq oromkursilarini tark etishni, o‘z kabinetidan chiqishni, muammolar epitsentriga borib ishlashni talab qildi. Rahbarlar o‘z “komfort zonasi”dan chiqishga majbur bo‘ldi. Lekin maqsad bu emas edi. Maqsad — rahbarlarni xalqqa yuzlantirish, davlat va jamiyatni o‘zaro bir-biriga yaqinlashtirish, joylardagi muammolarni batafsil o‘rganish asosida to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishini ta’minlash edi.

Bunday yondashuv asosida “osmonda yurgan” rahbarlar “yerga tushdi”, odamlar bilan muomala qilishni (garchi qiyin bo‘lsa ham), fuqarolarni tinglashni (boshliq uchun o‘ta muhim va o‘ta kamyob xislat) o‘rgandi, ularda empatiya (boshqalarning tuyg‘ularini, dardini tushunish layoqati) paydo bo‘ldi. Bu boshqaruv kadrlari endilikda ko‘r-ko‘rona, masalaning ichiga kirmay qaror qabul qilishdan yiroqlashdi. Har bir masalani aql chig‘irig‘idan o‘tkazib, ularning yechimlari amaliyotda qanday “ishlashini” chamalab ko‘rishga odatlandi. Ular pishiq-puxta, kuchli tahlil va dalillarga asoslangan, va eng asosiysi, xalqchil qarorlarga imzo cheka boshladi.

Yashirib nima qilamiz, rahbarlar bilan xalq o‘rtasidagi “Xitoy devori” olingach, aholi o‘z rahbarlarini taniy boshladi. Sayyor qabullar, OAVga intervyular, deputatlar oldidagi hisobotlar o‘z natijasini berdi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligini ta’minlash borasida vaziyat mutlaqo o‘zgardi.

Keyingi bosqichda Prezidentimiz rahbar kadrlar faoliyatini baholash mezonlarini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda boshqaruvchilarning faoliyati xalqqa foydalilik tarozisida, samaradorlik va natijadorlik nuqtayi nazaridan o‘lchana boshladi. Xalq ehtiyojlariga moslashish talabi ortdi. Silliq hisobotlar uchun ishlash davri o‘tdi. Inauguratsiya marosimidagi ma’ruzasida davlatimiz rahbari bu masalani yana bir karra urg‘uladi: **“Barcha bo‘g‘indagi rahbarlarga chiroyli, balandparvoz gapiga qarab emas, faoliyatining aniq natijasiga qarab baho beramiz”.**

Albatta, guruch kurmaksiz bo‘lmaydi. E’tiborlisi shundaki, ommaviy axborot vositalarida eng ko‘p iqtibos keltirilgan fikr quyidagicha bo‘ldi: “**Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo‘pol munosabatda bo‘ladigan, byurokratiya va korrupsiya balosiga berilgan har qanday rahbar bilan — u vazir yoki hokim bo‘ladimi, boshqa mas’ul vazifadagi amaldor bo‘ladimi — salbiy harakatlari bilan davlat obro‘siga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kesil xayrlashamiz**”. Garchi Prezidentimiz ilk kunlardanoq rahbar kadrlarda uchraydigan kibr-havo, qo‘pollik, poraxo‘rlikka qarshi kurashga yeng shimarib kirishgan bo‘lsa-da, bu sohada hali qiladigan ishlarimiz ko‘p.

Vaholanki, davlatimiz rahbarining sa’y-harakati bilan O‘zbekistonda davlat boshqaruvi falsafasi tubdan o‘zgardi. Ilgari davlat birlamchi bo‘lib, odamlar uning manfaatlarini qondiruvchi vositaga aylantirilgan bo‘lsa, hozirda boshqaruv piramidasi 180 gradusga o‘zgartirildi. Inson, jamiyat, xalq piramidaning cho‘qqisini egalladi, davlat siyosatining markazidan o‘rin oldi, uning manfaatlari oliy qadriyatga aylandi. Muhimi, insonga o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi vosita deb emas, o‘zgarishlar maqsadi sifatida munosabat shakllandi.

“Kim kimga xizmat qilmog‘i lozim: davlat insongami yoki inson davlatgami?”, degan falsafiy savolga qat’iy javob topildi: davlat — insonga. Shavkat Mirziyoyev siyosatining mazmuni va talabi oddiy va sodda tarzda ifodalandi: **davlat xizmatchisi avvalo, xalq xizmatchisi bo‘lishi shart.** Xalq yukini o‘z yelkasiga olish, odamlarni hayotdan rozi qilish — rahbarlar faoliyatiga baho berishning o‘lchov birligiga aylanadi. To‘g‘ri-da, har bir inson, u jamiyatda qanday o‘rin egallaganidan qat’i nazar, uni qadrlashi va hurmat qilishini istaydi. Kibrga berilish, birovlarning ko‘nglini og‘ritish, zulm qilish Allohga ham xush kelmaydi.

Jadid bobolarimiz yo‘rig‘idan borib, Prezidentimiz bunday jaholatdan ma’rifat najot bo‘lishini uqtirmoqda, boshqaruvdagi muammolar yechimini ham ta’limdan izlamoqda. Rahbar kadrlarning uzluksiz va tizimli ta’limini yo‘lga qo‘yishni, o‘quvlar sifatini oshirishni, xorijiy tajribani o‘rganishni davr talabiga aylantirmoqda.

Tan olish kerak, O‘zbekistonda yangi sharoitlarga moslashuvchan, oldiga qo‘yilgan masalalarni tezkor va sifatli hal etishga qodir, professional kadrlar taqchilligi mavjud. Shunday bo‘lsa-da, davlat obro‘siga putur yetkazayotgan amaldorlar haqida gapirar ekan, Prezidentimiz ularning o‘rnini kim bosishini ochiqladi: **“Ularning o‘rniga bilimli, Vatan va xalq tashvishi bilan yashaydigan yosh-yosh yigit-qizlarni qo‘yamiz”.**

“Yoshlik — g‘animat, vaqt — g‘animat, fursat borida otni qamchilang!”

Davlatimiz rahbari nutqida yangragan bu da’vat yurtimizdagi 18 milliondan ziyod navqiron o‘g‘il-qizlarga qaratildi. Negaki, Prezidentimiz aynan yoshlar timsolida “Yangi O‘zbekiston” bunyodkorlarini, “Uchinchi Renessans” yaratuvchilarini ko‘radi. Ularga bugungi va ertangi kunning egalari sifatida qaraydi. Ularning sadoqati va fidoyiligiga ishonadi.

Xo‘sh, Prezidentimiz aynan yoshlarga umid bog‘layotganining sababi nima? **Birinchidan,** yoshlar — totalitar fikrlashdan xoli, demokratiyaga ochiq toifa. **Ikkinchidan,** ular ishtiyoqi baland, bilagi kuchga to‘la, osmondagi oyni ham olib berishga tayyor g‘ayrat sohibidir. **Uchinchidan,** ular o‘zgarishlarga ochiq, yangiliklarga moslashuvchanligi nisbatan yuqori. **To‘rtinchidan,** yoshlar dovyurakligi tufayli hatto sun’iy intellekt bilan

raqobatlashishdan toymaydi. **Beshinchidan,** yoshlar tashabbuslari ichiga sig‘maydigan, bilimga chanqoq guruh hisoblanadi. Va eng muhimi, yoshlar liderlikka da’vogar, kelajak bilan bog‘liq katta-katta rejalar qurayotgan, baland parvozga shay qatlamdir.

Prezidentimiz aynan shunday yoshlarga qanot berib, ularni mansab otiga mindirmoqda. Qobiliyatli, tirishqoq va layoqatli yoshlar uchun rahbarlik eshiklarini ochmoqda. Bilimli va yurtiga sadoqatli kadrlar 22 yoshidayoq vazir o‘rinbosari bo‘lishi mumkinligini amalda isbotlamoqda. Davlat xizmati tizimini fidoyi, salohiyatli, professional kadrlar hisobiga to‘ldirishda yoshlarga tayanmoqda. Bunday mansab pillapoyalaridan ko‘tarilishda yosh va tajriba emas, qobiliyat, aql-zakovat va ishtiyoq hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Bu haqda Prezident shunday dedi: **“Mana, safimizga yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliygohlarda o‘qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelmoqda. Men ularning timsolida avvalo ertangi kunimizning yangi rahbarlarini, hudud, tarmoq va sohalarning mohir boshqaruvchilarini ko‘raman**”. Yoshlarga bildirilgan bunday ishonch, ularni mansab pillapoyalaridan ko‘tarilishiga berilgan bunday rag‘bat ertaga o‘z mevalarini berishi shubhasiz.

Kadrlar toblanadigan maskan

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “yutuqlar daftari”ga bitilgan o‘zgarishlardan yana biri mahalla bilan bog‘liq. Davlat boshqaruvidagi islohotlar bois, barcha davlat idoralari faoliyati mahallagacha tushirildi. Mahalla, o‘z navbatida, boshqaruv piramidasining cho‘qqisiga chiqarildi. Mahalla davlat siyosatining muhim bo‘g‘ini, islohotlar drayveriga aylandi.

E’tibor beradigan bo‘lsak, dastlab mahallalarga tushib, muammolar o‘rganildi. Tizimli muammolar aniqlangach, tegishli vazirliklarda bu muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilindi. Bora-bora mahalla muammolar o‘rganiladigan va aniqlanadigan maskandan muammolar joyida hal qilinadigan, muhim qarorlar qabul qilinadigan maskanga aylandi. Aholi farovonligini ta’minlashda mahalla jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik” vazifasini o‘tay boshladi. “Ochiq byudjet” loyihasining ishga tushirilishi natijasida mahalla jamoatchilik boshqaruvining muhim bo‘g‘iniga aylandi.

Mahalla mo‘jaz bir hokimiyat modelini o‘zida gavdalantirib, uni menejer-rais rahbarligidagi “beshlik” boshqara boshladi. Bu “beshlik” ochiq tanlov asosida shakllantirildi va dastlabki bosqichda o‘qitildi. Undan o‘rin olganlar mahallada bebaho tajriba orttira boshladi. Ular xonadonbay ishlashni, muammolarning xalqchil yechimlarini topishni, sabr kosasi to‘lgan odamlarni toqat bilan tinglashni o‘rganmoqda. Ular ustuvorliklarni belgilashni o‘rganyapti: qaysi oilalar birlamchi ko‘makka muhtojligini aniqlayapti. Ular begonalarning tuyg‘ularini tushunishni, ularga qayg‘udosh, hamdard, ko‘makdosh bo‘lishni o‘rganmoqda. Muhimi, odamlarning og‘irini yengil qilishdek savobli amallardan rohat topmoqda. Mahalladagi muhit, mahalladagi muammolar, mahalladagi ish uslubi ularni toblamoqda.

Institutsional jihatdan takomillashtirilgan mahalla yangi avlod boshqaruv kadrlarini tayyorlashning hayotiy maktabiga aylandi. Mahalla “qozonida qaynagan” kadrlar endilikda yuqori va mas’uliyatli lavozimlarga tayinlana boshladi. Boshqacha aytganda, Prezidentimiz mahalladagi beshlik uchun karyera modelini chizib berdi: mahallada ishlab, xalq dardini bilib, uning muammolarini hal qilishga astoydil bel bog‘lagan mahalla menejerlarini yuqori lavozimlarga tayinlash mexanizmini yaratdi. **“Rahbar bo‘lish uchun xalqning ichidan chiqib kelish kerak”,** degan tamoyil amal qila boshladi. Mahalladagi beshlik hali ko‘plab jonkuyar va fidoyi kadrlar uchun yaxshi “tramplin”, kuchli motivatsiya, o‘ziga xos ijtimoiy lift vazifasini o‘tashi aniq. Bu jihatdan “xalq xizmatidagi davlat”ni barpo etishda, insonparvar boshqaruvni ta’minlashda mahalla katta rol o‘ynamoqda.

“Haqiqiy safarbarlik endi boshlanadi!”

Odatda, mamlakat hayotining hal qiluvchi pallalarida yalpi safarbarlik e’lon qilinadi. Saylov va referendumlar ham ana shunday jarayonlar sirasiga kiradi. Konstitutsiyaviy referendumda ham, Prezident saylovida ham O‘zbekiston xalqi ana shunday safarbarlikni namoyon qildi. Lekin Prezidentimizning mana bu gapi meni o‘ylantirib qo‘ydi: “**Kimki “Saylov o‘tdi — safarbarlik tugadi”, deb o‘ylasa, xato qiladi**”. Bu iborasi bilan davlat rahbari nima demoqchi bo‘ldi? Endigi safarbarlik nimaga xizmat qiladi?

Saylovoldi dasturida va inauguratsiya marosimida Prezidentimiz yaqin 7 yillik maqsad-marralarimizni bayon etdi. Saylovda Shavkat Mirziyoyevga ovoz bergan har bir fuqaro aslida uning saylovoldi platformasidan o‘rin olgan g‘oyalarga ham ovoz berdi. “O‘zbekiston — 2030” maqsadlarini amalga oshirish Prezidentga xayrixoh va tarafdor insonlar bilan bir qatorda unga kamarbasta va yelkadosh insonlarning ko‘p bo‘lishini taqozo etadi.

Bunday insonlarga yangi O‘zbekistonni qurish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bilan bog‘liq islohotlarning eng old qatorlarida bo‘lish, tom ma’noda tarix g‘ildiragini aylantirish imkoniyati beriladi. Zero, nafaqat bugun qanday yashashimiz, balki ertangi kunimiz qanday bo‘lishi ham bizning ana shu safarbarligimizga bog‘liq bo‘ladi. Biz tarixan muhim jarayonning markazida turibmiz, bizga mamlakat taqdiriga daxldor ulkan ishga hissa qo‘shish imkoniyati berilmoqda.

Bizning har kunimiz inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat sari tashlangan qadam bo‘lishi kerak. **“Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori” degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart”**, deydi davlatimiz rahbari. Yangi O‘zbekiston deb atalmish ulug‘vor imoratni tiklashda rahbarlar bilan bir qatorda har birimiz o‘z hissamizni ko‘shishimiz, ma’joziy ma’noda o‘z g‘ishtimizni qo‘ya olishimiz kerak. Chunki kelgusi yetti yilga mo‘ljallab ishlab chiqilgan strategik maqsadlarga erishishdan hammamiz va har birimiz manfaatdormiz. Shu bois, bu maqsadlar Prezidentimizning “kun tartibi”dan har birimizning “kun tartibi”mizga ko‘chishiga ishonchim komil. Endi “bizga bo‘laveradi” deb yashashga xaqqimiz ham vaqtimiz ham yo‘q!

YOZGI OROMGOHLARDA

BOLALAR SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH

tabiatdan bahra olish uchun g‘oyat qulay fursat

Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan yosh avlodga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Yoshlarning bilim va iqtidori, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning mazmunli dam olishini tashkil etish va sog‘lomlashtirish ham zamonaviy talablarga mos ravishda amalga oshirilmoqda.

Xususan, sog‘lomlashtirish oromgohlariga jalb etiladigan bolalarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, bu yo‘nalishdagi ishlarni takomillashtirish va rivojlantirish dolzarb masalalar sirasidandir. Zero, yozgi ta’til bolalar salomatligini mustahkamlash, tabiatdan bahra olish uchun g‘oyat qulay fursat sanaladi.

Bugun yozgi ta’til chog‘ida mehnat jamoalari xodimlari farzandlariga oromgohlarga yo‘llanma berish yaxshi an’anaga aylangan.

“Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi hamda tizimdagi boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitalari ana shunday xayrli ishni yo‘lga qo‘ygan.

Aksiyadorlik jamiyati tashabbusi bilan yozgi ta’til davomida tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi-xodimlarning jami 2 ming farzandi sog‘lomlashtirilishi rejalashtirilgan.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ta’til boshlanishi bilan xodimlar farzandlari yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlariga navbat bilan yuborilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 61, Navoiy viloyatidan 85, Sirdaryo viloyatidan 270, Qashqadaryo viloyatidan 600 dan ortiq bola mamlakatimizning so‘lim hududlaridagi oromgohlarda dam olib qaytgan.

Kuni kecha Qashqadaryo viloyatidagi “Muborak” IEM ishchi-xodimlarining 30 nafar farzandi Toshkent temir yo‘l vokzalidan Soliq qo‘mitasi tasarrufidagi “G‘azalkent” bolalar sog‘lomlashtirish markaziga kuzatib qo‘yildi.

Bu yerda bolalarni jismonan chiniqtirish, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun barcha sharoit yaratilgan.

Oromgohda sport musobaqalari, turli viktorinalar, tanlovlar hamda boshqa qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar uyushtiriladi.

— Bolalar ta’tilni qanchalik mazmunli o‘tkazsa, bu ularning yangi chorakdagi faolligiga, fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtirishiga xizmat qiladi, — deydi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ birlashgan kasaba uyushma qo‘mitasi raisi Anvarjon Rustamov. — Buning uchun qator madaniy-ma’rifiy tadbirlar bilan birga, turli sport musobaqalari o‘tkazish ham yaxshi an’anaga aylangan. Musobaqalar, eng avvalo, o‘g‘il-qizlarimizni sog‘lom turmush tarziga rioya etishga chorlaydi. Qolaversa, jismoniy tarbiyaga oshno bo‘lgan o‘quvchining irodasi mustahkam, ruhi tetik, yuragi baquvvat bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlarida o‘quvchi yoshlarni ma’nan barkamol, yetuk inson qilib tarbiyalash uchun zarur sharoitlar muhayyo. Dam olish davomida bolajonlar milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni targ‘ib qiluvchi tadbirlarda ishtirok etadi. Maxsus dastur asosida o‘quvlar, sport musobaqalari tashkil etiladi. Bolalarning sog‘lom ovqatlanish ratsioniga qat’iy amal qilinadi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

NUQTAYI NAZAR

INSON KAPITALIGA YO‘NALTIRILGAN SARMOYA

mamlakat istiqbolini belgilovchi omilga aylanmoqda

Egamqul NOSIROV,
Toshkent moliya instituti kafedra mudiri,
iqtisodiyot fanlari nomzodi
Shoira ASAMXO‘JAYEVA,
Toshkent moliya instituti dotsenti vazifasini bajaruvchi

MAMLAKATIMIZDA, UMUMAN, JAHONDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISHGA IQTISODIY TARAQQIYOTNING ASOSIY OMILI SIFATIDA QARALAYOTGANI BEJIZ EMAS. IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALINING MILLIY BOYLIKDAGI ULUSHI 80 FOIZGACHANI TASHKIL ETADI. SHU BOIS, DUNYONING TARAQQIY ETGAN MAMLAKATLARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILMOQDA.

Boshlanishi 1-betda

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha mamlakatimizda 2022-2026-yillarda kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 barobar oshirib, 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarga o‘qitish, umumta’lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 2024/2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish kabi vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, yangi maktablar qurish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta’lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash, Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar yetakchi 50 mamlakat qatoriga kirish kabi masalalarga e’tibor qaratilgani yurtimizda inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani va bu maqsadlar uchun salmoqli investitsiya jalb etilayotganidan dalolat beradi.

Gap inson kapitali haqida ketar ekan, har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohada erishgan muvaffaqiyatlari zamirida shu jamiyatda yashayotgan va faol mehnat qilayotgan insonlarning bilimi, malakasi, tajribasi va salohiyati yotishini ta’kidlash o‘rinli. Zero, inson kapitali mamlakatning ertangi kunini belgilab beruvchi eng muhim mezonlardan biridir.

Mamlakatimizda, umuman, jahonda inson kapitalidan samarali foydalanishga iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida qaralayotgani bejiz emas. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 80 foizgachani tashkil etadi. Shu bois, dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlarida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hukumatning aholini o‘qitishi, salomatligini asrashi, ijtimoiy himoyani kafolatlashi borasidagi chora-tadbirlari bugun insonning nafaqat shaxs sifatida kamolga yetishi, balki mamlakatning yanada raqobatbardosh bo‘lib ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga ichki hamda tashqi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ichki omillar insonning o‘zi bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, tashqi omillar boshqa subyektlarning inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga ta’siri bilan aloqador.

Inson kapitaliga kiritilgan har qanday investitsiya yetarli darajada yuqori rentabellik va qoplanish muddatiga ega bo‘lsagina o‘zini oqlaydi. Shuning uchun inson kapitaliga investitsiya kiritish bilan bog‘liq siyosatni amalga oshirishda bu boradagi tavakkalchiliklarni tahlil qilish va investisiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash dolzarb masaladir.

Fan-texnika va sun’iy intellekt rivojlanayotgan sharoitda inson kapitali mamlakat kelajagini belgilaydigan zarur omilga aylanmoqda. Inson kapitaliga investitsiya shaxsning qobiliyatini, malakasini oshirish va rivojlantirishga kiritilgan sarmoya bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad samaradorlikni oshirishdir. Shuningdek, u insonning ta’lim olishi, bilimini mustahkamlashi, sog‘lig‘ini tiklash hamda yaxshilashga yordam berish uchun sarflangan vaqt, kuch va moliyaviy resurslarni o‘z ichiga olgan strategiyani ifodalaydi. Ushbu konsepsiya shaxsning o‘ziga xos qiymatini tan oladi hamda insonning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishi va farovonligiga investitsiya kiritish natijasida yuzaga keladigan uzoq muddatli foydani oila xo‘jaligi va jamiyat darajasida e’tirof etadi.

Ta’limga sarmoya kiritish inson kapitalini rivojlantirishning muhim jihatidir. U maktab, kollej va universitetda olinadigan rasmiy ta’limni, shuningdek, kasbiy o‘qitish dasturlarini o‘z ichiga oladi. Har bir yangi bosqichda egallangan kasbiy kompetensiyalar kelajakda inson kapitalining iqtisodiy samarasini oshirishda ijobiy natija beradi. Ta’lim odamlarni doimiy o‘zgaruvchan dunyoda zarur bo‘lgan muhim bilim, tanqidiy fikrlash va moslashish qobiliyati bilan ta’minlaydi. Shuningdek, yuqori ish haqi, yaxshi martaba, moddiy farovonlik va moliyaviy barqarorlikni kafolatlaydi. O‘qish va ishlab chiqarishga tayyorgarlik insonning bilim darajasini oshiradi. Bu, o‘z navbatida, inson kapitalining hajmi va sifatiga ijobiy ta’sir etadi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ta’lim darajasining 10 foiz o‘sishi unumdorlikni 8,6 foiz oshiradi.

Salomatlik va farovonlikka sarmoya kiritish ham inson kapitalini rivojlantirishning ajralmas qismidir. Sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish, profilaktika choralari va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi. Kasallik tufayli yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan ish kunlari sonini kamaytiradi. Sog‘liqning qoniqarsiz holati mahsuldorlikni pasaytiradi. Chunki jismoniy jihatdan zaif va bemor ishchilar qobiliyatini to‘liq ro‘yobga chiqara olmaydi. Shu sababli korxona va tashkilotlar o‘z xodimlari sog‘lig‘iga investitsiya kiritadi.

Tadqiqot va innovatsiya sohalari ham inson kapitaliga sarmoya kiritishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya kiritish innovatsiyalar va texnologik yutuqlarni rag‘batlantiradi, iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Ilm-fan rivojlanishi jarayonida nafaqat intellektual yangiliklar hayotga tatbiq etiladi, balki bu jarayonda ishtirok etayotgan insonlarning yangi imkoniyati va qirralari ochiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy va iqtisodiy inklyuzivlikni rag‘batlantirish inson kapitaliga sarmoya kiritishning yana bir muhim jihati. Jinsi, etnik va ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat’i nazar, insonlarga teng imkoniyat va resurslardan erkin foydalanish ta’minlanishi zarur. Inklyuziv siyosat va dasturlar barcha shaxslarning o‘z salohiyatini ro‘ yobga chiqarish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Inson kapitaliga sarmoya kiritish hukumat, korxona va tashkilotlar hamda jismoniy shaxslarning birgalikdagi sa’y-harakatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu borada hukumat maxsus dastur ishlab chiqadi, ta’lim va sog‘liqni saqlash uchun mablag‘ ajratadi va malaka oshirish uchun qulay muhit yaratadi. Korxonalar xodimlarini o‘qitish va rivojlantirishga sarmoya kiritadi. Shuningdek, inson o‘zini o‘zi boshqarish, uzluksiz ta’lim va faol shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishi uchun o‘ziga sarmoya kiritishi mumkin. Korxona va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi ko‘p jihatdan inson kapitalini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘ miqdoriga hamda sarmoyaning o‘z vaqtida ajratilishiga bog‘liq.

TOMORQACHILIK

RIZQI BUTUN YOSHLAR

O‘zbek uchun bir parcha yer qadrli, aziz. Chunki u nafaqat oila daromadiga daromad qo‘shadi, balki yurt farovonligini ta’minlashda ham muhim omil sanaladi. Shu bois, mamlakatimizda so‘nggi yillarda yoshlar bandligini ta’minlashning eng samarali usullaridan biri sifatida ularga dehqonchilik qilish uchun yer ajratib berilmoqda.

Toshkent viloyatida joriy yil boshidan buyon 1200 dan ziyod yoshning har biriga 20 sotixdan 50 sotixgacha yer ajratildi. Birgina Bekobod tumanida ishsiz yoshlarga ajratilishi rejalashtirilgan yer 749,5 gektardan iborat edi. Yer oladigan yoshlar esa 1435 nafar bo‘lib, ularning har biriga o‘rtacha 0,50 sotixdan yer tegdi.

So‘nggi yillarda kaftdekkina yerdan oqilona foydalanib, salmoqli daromad olayotgan yoshlar ko‘p. Bu borada ular tajribali dehqonlardan ham o‘zib ketmoqda. Qanday qilib deysizmi?

Ishtiyoq va havas bo‘lsa...

Bekobod tumanining Guliston mahallasida yashovchi Abdumuxtor Zokirov so‘zlarini eshitsangiz, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz. Uning aytishicha, yerdan mo‘may daromad olish uchun yerga o‘z vaqtida to‘g‘ri ishlov berilsa, dehqonlardan maslahat olinib, halol ish qilinsa, yer insonlardan in’omini ayamaydi.

— Joriy yilning erta bahorida 10 sotix yer maydonini 10 yil muddatga foydalanishim uchun berishdi, — deydi Abdumuxtor. — Baqlajon ekdik. Ayni kungacha uch marta hosil uzib, bozorga olib chiqdik. Yana to‘rt marta hosil terib olishni reja qilganmiz. Xudo xohlasa, bu yilgi sof daromadimiz 40 million so‘m atrofida bo‘ladi.

Darhaqiqat, yozning ayni pishiqchilik mavsumida fursatni boy bermay, ekin yerining har qarichidan unumli foydalanilsa, ro‘zg‘or but, dasturxon to‘kinligi ta’minlanadi. Buning uchun kishida mehnatga ishtiyoq va havas bo‘lsa, kifoya.

30 yoshni qarshi olgan Abdumuxtor gurung orasida baqlajon yetishtirish borasidagi tajribasi bilan ham o‘rtoqlashdi. Qarang, qisqa fursatda u o‘qib, izlanib, usta dehqonga aylanibdi.

— Baqlajon ekish uchun, birinchi navbatda, yer maydoni yaxshilab tozalanadi. So‘ngra 10 sotix yerga bir yarim, ikki tonna go‘ng solinadi, 20-25 santimetr chuqurlikda yumshatiladi va egat olinadi. Birinchi ishlov berish ko‘chatlar to‘liq tutib olgach, boshlanadi. Egat ichi, pushta va qatordagi ko‘chatlar orasi tuprog‘i yumshatiladi. Birinchi parvarishdan o‘n besh kunlar o‘tgach, ikkinchi suv beriladi. Keyin yana bir bor chopiq qilinib, begona o‘tlardan tozalanadi, yumshatiladi va tuproq ko‘chatning atrofiga bosiladi. Baqlajon o‘simligi yaxshi rivojlanib, mo‘l hosil berishi uchun ildizi joylashgan qatlam havo bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Buning uchun suv egat oralatib qo‘yilgani ma’qul, — deydi yosh dehqon.

Tuganmas xazina

Abdumuxtor Zokirovning yer bilan tillashishida rahmatli otasining mehnatlari singgan. 7 farzandning kenjasi bo‘lgan Abdumuxtor traktorchi bo‘lib ishlagan otasining yonida ko‘p yurgani uchun dala hadisini yaxshigina o‘rganib oldi. “Bolam, tomorqa tuganmas xazina, yerni aziz bilsang, rizqing hamisha butun bo‘ladi”, degan gaplarini bot-bot eslab turadi. Ayoli Barchinoy ham unga ko‘makchi. Moskva davlat universitetini imtiyozli tamomlab, davlat ishi va tomorqachilikni birday olib borayotgan bu yigitning kelajakdagi niyatlari juda ulkan. Bir o‘g‘il va bir qizining baxtli hayoti poydevorini hozirdanoq mustahkam qo‘yish uchun shaylangan Abdumuxtor mehnatdan qochmaydi. Donolarimiz aytganidek, mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik.

— So‘nggi yillarda yoshlarga yer ajratib berish orqali ularning bandligini ta’minlash borasida izchil islohotlar kechmoqda, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i Miraziz Mirsultonov. — Viloyatimizda ham 18-30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlarni ish bilan ta’minlash sohasida ko‘p ish qilinyapti. Yoshlar, asosan, agroklasterlar, baliqchilik, asalarichilik, parrandachilik sohalari, tomorqachilik va issiqxona xo‘jaliklariga ishga joylashtirilyapti. “Yoshlar daftari” esa mavjud muammolarni o‘rganish, yoshlar takliflarini qo‘llab-quvvatlash borasida samarali tizimga aylandi. Ayniqsa, tarmoqlarda ko‘plab yoshlarning bandligi ta’minlanyapti. Ularning mavsumda yetishtirgan hosildan topayotgan daromadi ham chakki emas. Joriy yilning erta bahorida viloyatimiz yoshlari uchun ajratib berilgan tomorqa yerlari bugun barakali hosil beryapti. Mehnat qilgan odam elda kam bo‘lmas, degan maqolning isbotini yoshlar hayoti misolida kuzatishimiz mumkin.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

YAQIN O'TMISH YOG'DULARI

Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Yurt egasidan boshlangan adabiyot bayrami

yoxud yosh ijodkorlarning Respublika Zomin seminari tashabbuskori kim edi?

Yangiboy QO'CHQOROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Boshlanishi 1-betda

Kuni kecha yangi O'zbekiston zamonaviy adabiyotining navqiron avlodi yigirma yettinchi bor tarovatli Zomin tog'lari bag'ridagi so'lim O'riklisoyga to'plandi. 27 yil ko'p zamonlaru xo'b davronlarni o'lchagan ko'hna tarix soatining "oltin kapgiri" uchun, akademik shoirimiz G'afur G'ulom yozganidek, "kapalak umriga qiyos etgulik fursat"dir, balki. Ammo bu yigirma yetti yil davomida mustaqil mamlakatimiz turmushi va adabiy hayotimizda yuz bergan beqiyos, olamshumul o'zgarishlarning "bahosin o'lchamoq uchun oltindan tarozu, olmosdan tosh" ozlik qiladi.

Gap yangi zamon she'riyatining atoqli vakili, shodlik va baxt kuychisi Hamid Olimjon tug'ilgan Jizzax zamini haqida ketar ekan, bu suluv diyorga qadam qo'ygan kishi vujudini "bir ajib his" qamrab oladi. 27 yil muqaddam kaminai kamtarin bu go'zal maskanga bir ajib tuyg'ular bilan borgan edim.

O'shanda biz — men, Jovli Xushboq, Gulchehra Aliboyeva kabi qator publitsistlar "Turkiston" gazetasining mintaqaviy muxbirlari edik. Oyning o'n beshi qorong'u deganlaridek, bir vaqtlari million adad bilan chiqqan gazeta ozgina vaqt bosilmay qoldi. Yangi kelgan Bosh muharrir hammamizni yig'ib, "Birinchi ishimiz — gazetaning avvalgi shuhratini tiklashimiz, adadi va o'qishli maqolalarni ko'paytirishimiz kerak!" dedi. So'ngra yon daftarchasiga bir qarab olib "Mintaqaviy muxbirlarimizni bot-bot Jizzax hamda Sirdaryo viloyatlariga jo'natib turamiz. Kundan-kun ko'payib borayotgan vodiy ahlining bir qismini cho'lga chorlash kerak bo'ladi!" deb qo'shimcha qildi.

Jizzaxga birinchi ijodiy safarimizga O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov bosh bo'ldi. Xalq shoiri Normurod Narzullayev menga "Hammamizning nomimizdan maqolaning xamirturushini sen tayyorlaysan, xalqim. Pishitish bizdan!" dedi. Olti muallif nomidan men tayyorlagan maqola bosildi, ijobiy shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Safardan qaytganimizdan keyin Normurod aka bilan u Bosh muharrir bo'lib ishlayotgan yoshlar nashriyotida gurunglashdik. "Bilasanmi, xalqim, sen bilan qalbim. Jizzax endi avvalgidan ham zo'r bo'lib ketadi. Mirzo Ulug'bek tumanining rahbari Shavkatjon Mirziyoyev viloyatga hokim bo'lib bordi. Juda ishchan yigit. Kitobni ko'p o'qiydi. Kitob o'qigan odamning hamma ishlari baroridan keladi. Endi she'r eshit: "Samolarda yulduzlarni osmon so'roqlar, Chin insonni ko'ngil qo'yib inson so'roqlar". "Juft bo'lsin, ustoz!" deganimdan keyin "Yaxshilik deb yashayman!" she'rini ham o'qib berdi. Bu 1996-yilning 12-sentyabri, atoqli shoir Shavkat Rahmonning tug'ilgan kuni edi. O'shanda so'nggi kunlarini yashayotgan shoir Chilonzorda, V.Vohidov nomidagi ko'krak jarrohligi shifoxonasida davolanayotgandi.

1997-yilning yozida shoir Azim Suyun Matbuotchilar ko'chasi, 32-uyda joylashgan tahririyat binosi oldida ko'rishganimizda "O'n yil avvalgi qarzimni uzmasam bo'lmaydi. Sizni Jizzaxga olib ketaman!" dedi. Yonida turgan xodimlari ajablanib qo'ydi. Chunki ular 1987-yilning fevralida Azim aka va uning shoir hamrohini 4 oy avval "Qoraqalpoq dostoni" trilogiyasi uchun SSSR davlat mukofotini olgan ustozimiz To'lepbergen Qaipbergenovning huzuriga olib borganimni, keyin uning hamrohini noqulay vaziyatdan olib chiqqanimni bilmasdilar. "O'riklisoyda siz uchun bir "syurpriz"im bor!" deb qo'shib qo'ydi Azim aka.

O'riklisoy safari unutilmas bo'ldi. Tog'ning musaffo havosi, soyning zilol suvi, o'rtasiga sariyog' qo'yilgan patir, kiyik o'ti qo'shib damlangan choy bir tomon-u, Azim Suyun aytgan "tirik syurpriz" ikkinchi tomon bo'ldi. O'riklisoyda yashaydigan Husan ismli qirg'iz yigit "Manas"ni yoddan aytar ekan.

"Manas"chining aytimlarini tinglab, og'zim ochilib qoldi. Shu orada Azim aka ham jo'shib ketdi-da, o'zimizning "Avazxon" dostonidan bir necha bandni o'qidi.

Toshkentga qaytgan kunimizning ertasiga bolalarning sevimli shoiri Quddus bobo Muhammadiy to'qson yoshida olamdan o'tdi. Ma'rakada turganimizda Azim aka "Quddus bobo aslida biolog, SAGUda, keyin tibbiyot institutida o'qigan. O'zbekiston xalq shoiri, bir necha avlod bolalarining sevimli shoiriga aylandi. Quddus aka bir vaqtlar Islom shoir Nazar o'g'liga kotiblik ham qilgan", dedi.

1997-yil iyul oyining birinchi o'n kunligi mustaqil O'zbekiston adabiyoti solnomasiga oltin harflar bilan yozib qo'yildi. Shu kunlari Jizzax viloyati hokimi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati Shavkat Mirziyoyev boshchiligida respublika yosh adiblarining birinchi anjumani o'tkazildi. Anjuman arafasida "Jizzax haqiqati" gazetasi tahririyatiga kirdim. Tahririyatning bir-ikki xodimi uzun bo'yli yoshi ulug' oqsoqolning hikoyasini tinglab o'tirgan ekan. Salomlashdik. "Turkiston" gazetasidan ekanimni eshitgach, oqsoqol o'rnidan turib:

— "Pomidor nega qizil" degan kitobning avtori Ibrohim Donish bo'laman! — dedi.

— Yangiboy Qo'chqorovman.

— Ie, maqolalaringizni o'qib turaman. Oshiq Ayoz — Ibroyim shoir bilan suhbatingiz esimda qoldi. Keling, suhbatimizga qo'shiling.

Ibrohim Donish bilan uzoq yillar ota-bola bo'ldik, Do'rmonda yoinki Jizzaxda o'zi barpo etgan bog'da haftalab suhbatlashdik. U hozir oramizda yo'q.

Endi yana o'sha 1997-yil iyul oyi boshiga qaytamiz. Respublika yosh ijodkorlarining birinchi anjumanini ochar ekan, viloyat hokimi Shavkat Mirziyoyev bunday degan edi:

"Assalomu alaykum, qadrli adabiy anjuman ishtirokchilari!

Hurmatli ustoz adiblar!

Qadrli yosh ijodkorlar!

Go'zallik va nafosat kuychisi Hamid Olimjon tavallud topgan tabarruk zaminga xush kelibsiz!

Hurmatli Abdullajon aka! Mamlakat miqyosidagi adabiyot anjumanini viloyatimizda o'tkazish haqidagi taklifimizga bosh qo'shganingiz uchun sizga, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi rahbariyatiga, bugungi anjumanda ishtirok etayotgan atoqli adiblarga barcha jizzaxliklar nomidan, kitobsevar, she'rsevar elimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiramiz. Hammangizga igna bilan quduq qazishdek murakkab ijodiy ishlaringizda yutuqlar tilaymiz.

Bizda cho'llarda bo'ston yaratayotgan dehqonlaru bog'bonlar, yaylovlarda zahmat chekayotgan chorvadorlar, ishbilarmonu tadbirkorlar, hamma-hammasi kitob o'qiydi. Biz yangi jamiyat quryapmiz. Buning uchun ilm kerak, zamonaviy texnologiyalar kerak. Ularni esa faqat kitobdan olish mumkin. Ayniqsa, badiiy adabiyot insonning bir umrlik sodiq hamrohidir. Mening o'zim ham har kuni kitob o'qiyman. She'riyatga mehrim baland. Albatta, hayotimizga elektron manbalar kirib kelmoqda. Lekin hech narsa odamga kitobchalik bilim, zavq, tarbiya bera olmaydi. Yoshlarimizni kitobga burishimiz lozim. Ular har xil jaholat tasvirlaridan ko'ra, "O'tkan kunlar"ni o'qisin. Chunki unda insonni komillikka eltuvchi minglab iboralar bor. Asrimiz yakuniga yetmoqda. Yangi asr kitob asri bo'lishi lozim. Viloyatimizda yosh shoir, adiblarga katta e'tibor bermoqdamiz. Bugun ular barcha viloyatlardan kelgan tengdoshlari bilan birga nazm, nasr, dramaturgiya, badiiy publitsistikada bellashadilar. Uyda devorlar yordam beradi, degan gaplar bor. Lekin bizning yoshlarga Alloh bergan talantlari ko'maklashadi, deb o'ylayman.

Yaqinda Do'stlik tumanidagi bir maktab sinfiga kirganimda bolalardan "Badiiy ijod bilan shug'ullanadiganlar bormi?" desam, teng yarmi she'r yozishini aytdi. Demak, bu Navoiy va Bobur, Nodira va Ogahiy, Oybek va G'afur G'ulom, Erkin Vohidov va sizning ta'siringiz, Abdulla aka. O'ylaymanki, bugun anjumanga kelgan yoshlar orasidan sizning munosib izdoshlaringiz yetishib chiqadi. Sizga so'z berishdan oldin shunday istak bildirmoqchi edimki, bugun boshlanayotgan Zomin seminari uzoq yillar davom etsin. She'r shukuhi bizni hech qachon tark etmasin!".

Anjumanning ochilishida so'zga chiqar ekan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bunday dedi:

"Hurmatli adabiy mashvarat mehmonlari!

Qadrli Shavkat Miromonovich!

Aziz yoshlar!

Yillar o'tar, lekin Zomin anjumanining o'sha ahamiyati asrlarga qoladi. Siz, Shavkatjon, bu anjuman bilan bizlar hammamiz birmiz, bir O'zbekistonmiz, bir elmiz, bir adabiyotmiz, dedingiz. Tug'ilgan joy hammaga aziz. Mening ko'zimga Koson, sizning ko'zingizga Zomin issiq ko'rinadi. Ammo biz hammamiz o'zbekistonlikmiz. Ayniqsa, yosh adiblar O'riklisoyda shu shior tagida birlashgani o'ta qadrlidir. Esingizda bo'lsa, shoh va shoir Husayn Boyqaro ulug' Nizomiddin G'iyosiddin o'g'li Alisher Navoiy turk tiliga Masih nafasini kiritdi, deb yozgan edi. Men bugungi anjuman yoshlari, ularning barcha tengdoshlari buyuk ona tilimizni puxta o'rganishlarini istardim.

Men ijodiy uyushmaning rahbari yoinki ko'pni ko'rgan bir ijodkor sifatida nafaqat siz yoshlarga, balki sizlarga ustozlik qilayotgan adiblarga qarata bir necha marta, hurmatli hamkasblar, bir tup majnuntolni O'zbekiston deb o'ylab asar bitmang, yurtning tog'larini, sahrolarini, daryolarini ko'ring, deyman. Mana, sizning taklifingiz bilan biz bugun bu go'zal tog'larga keldik. Bu joylar nafaqat navqiron ijod ahliga, balki katta avlod adiblariga ham ilhom beradi.

Mana, ulkan shoirimiz Ma'ruf Jalil o'tiribdi. Ma'ruf akaning "Parizodim, seni izlab tog'larga bordim", degan she'ri bor. Zominga tashrifidan keyin yangi turkum yozadi, deb o'ylayman. Husniddin akaga esa she'riy roman yozish cho't emas. O'zi tog'lar qizi bo'lgan Sharifa Salimova ham yangi she'rlar yozishi aniq. Yangilik yaxshi narsa. Lekin yangi an'anani boshlash o'z-o'zidan bo'lmaydi. Sizning o'zingiz, Shavkatjon, qo'lqanotlaringiz bu anjumanga tayyorgarlik ko'rishda ko'p mehnat qilganingizni bilamiz. Mening birinchi o'rinbosarim, yaxshi shoir, yaxshi nosir Yo'ldosh Sulaymon ancha kunlardan buyon tinim bilmaydi. Uyushma mas'ul kotibi Rahimjon Otayev kamgap, kamtar bo'lgani bilan o'z ishiga puxta. Ularga ham rahmat deyman. Bugungi anjumanning muhim bir ahamiyati bor. Men ana shu alohida ahamiyatini aytmaslikka haqqim yo'q.

Men davrimizning asosan Qaysin og'a, Mustay og'a, Dovud og'a, Rasul og'a, Chingiz og'a, Ibroyim og'adan iborat adiblar davrasida ishtirok etganman. Boshqacha o'ylashmasin, deb piterlik qahramon shoir Mixail Dudinni boshchi qilib yurishardi. O'sha davrada Qaysin Shuvayevich "Ona tilimiz tomirlarimizda oqib turgan qonimiz!" degan edi. Aynan o'sha kishi mening she'rlarimni Tvardovskiyga berib, dunyoga eshik ochib bergan. Biz bugun Husniddin aka bilan qanchadan-qancha yoshlarga oq fotiha beramiz. O'z navbatida, biz sizga ham omad tilashdan baxtlimiz. Ko'rib turibmiz, Jizzax xalqini baxtli qilish uchun jon kuydiryapsiz. Allloh shu ezgu ishlaringizning ajrini bersin. Doimo yurt va yurtboshi nazarida bo'ling!"

Anjuman boshlandi. Xotira bobida men ham oddiy odamman. Uyg'un Ro'ziyev degan yosh ishtirokchining qo'lida "Atirgul" degan satirik romanning qo'lyozmasini ko'rgan edim. U bugun nasrimizning bir boyteragi. Nodirjon Xolbo'tayev degan navqiron yigitga she'rini ikki bora o'qitishdi. Hozir Nodir Jonuzoq adabiyotimizning taniqli vakili. Farg'onaning Uchko'prigidan Shuhratjon Oripov degan o'ninchi sinf o'quvchisi she'r o'qidi. Ajoyib shoir Shuhrat Orif bugun elimizning ilg'or so'z san'atkori. Jizzaxning o'zidan jajjigina bola bor ekan. "Nay" she'rini o'qib berdi.

Bu hozirgi, ya'ni yigirma yettinchi bora o'tayotgan anjuman tashkilotchilaridan biri Shodi Otamurod edi. Kichkinagina qiz chetda jilmayib turardi. Shu joyda muxbirligim foyda berdi, yozib oldim. Shahlo Ahrorova ekan. U bugungi shoiralarning ilg'orlaridan biri. Birinchi anjumandan boshlab uzoq yillar Sayyora To'ychiyeva kayvonilik qiladi. U bugun taniqli shoira, falsafa fanlari doktori, professor.

Anjuman yakunida Abdulla aka jurnalistlar bilan suhbatlashdi. Ustoz menga "Sen biz bilan qolasan!" dedi. Ustoz Pushkindan she'rlar o'qidi. Turob Maqsud gazeta, Sayyora To'ychiyeva kitob, kimdir ikki varaq she'r tashlab ketdi. Haydovchi choy quydi. Shu payt peshayvonga bir dasta kitob ko'targan gidromuhandis O'rish Majidov "Hormanglar!" deb kirib keldi. Abdulla aka O'rish akani hurmat qilar, kitobsevarligi va Zarbdordagi uyida "Dastxatlar kutubxonasi" ochgani uchun siylardi. "Keling, O'rish aka!" dedi Abdulla aka. O'rish aka kulib: "Yo'lning narigi tomoniga, mening dachamga o'taylik!" dedi.

Xullasi kalom, o'shanda Abdulla aka "Qachon men Zominga kelsam, hech kimdan so'ramay kelaver!" dedi. "Biz tomonga borasizmi?" dedim. "Boraman, sen tomonda ham yoshlar anjumani qilamiz!" dedi. So'zida turdi. Men bu maqolada o'sha O'riklisoy gurungiga o'xshash epizodlardan bir nechtasini misol qilib keltirishim mumkin. U haqiqatning ko'zlariga tik boqardi. Hatto buni tili bilan aytmasa ham. Bir gal ikkimiz ovqatlanib o'tirganimizda:

— Agar hozir men nimani o'ylab o'tirganimni topsang, xuddi Mirtemir aka "Bo'tam, bo'tam!" deb Nosir Fozilovga kostyum-shim olib berganidek sarpolik bo'lasan! — dedi.

Uzoq o'ylanib:

— Men Abdulla Oripov ulug' shoir, qahramon, senator bo'lsam-u, do'stni kamaytirib, dushmanni ko'paytiradigan rais lavozimida bo'lmasam edi, degan xayoldasiz! — dedim tavakkaliga.

Eski Jo'vaga Zarqaynar tomonidan kirib, biror xaridor yo'q do'kondan oqish rangli kostyum-shimlar oldik. Ertasiga Zominga jo'nadik. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Shuhrat Jabborov ustoz bilan ikkimizning kostyum-shimimiz bir ekanini ko'rib, "Abdulla aka! Uchovimiz bir suratga tushaylik!" dedi. Surat keyin "Yoshlik" jurnalida e'lon qilindi. Yaqinda ulug' Rasul Hamzatov haqidagi "Dog'iston donishmandi" kitobim chiqdi. Uni yozishga Abdulla aka o'sha O'riklisoyda undagan edi. Hech bo'lmaganidan kech bo'lgani tuzuk ekan.

Abdulla aka bilan mamlakatimizning juda ko'p joylarida safarda birga bo'lganman. Shoir Istanbulga, davolovchi shifokori Ilyosbey afandi huzuriga, keyingi yili Texasga, Xyuston klinikasiga, amriqolik shifokori Pavel janoblarining oldiga ketayotganida, u yerlardan xush kayfiyat bilan ona yurtga qaytib kelganida, nihoyat, 2016-yilda yana o'sha mintaqaga otlanganida shoir bilan uzoq-uzoq suhbat qurganmiz.

— Qaytib kelganimda yana bir bora Xivaga, Polvonpirga, keyin Mo'ynoqqa, Hakim Ota — Sulaymon Boqirg'oniy ziyoratiga olib borasan! — degan edi. Endi bu safarlar va diydor qiyomatga qoldi. Olti oqshom tonglar otmadi. Olti oqshom ko'zlarimizda yosh bilan ustozning eshigi oldida turdik. Birinchi kechasi yarim tungacha ustozning akasi, professor Abdurazzoq Oripov Abdulla akaning bolaligi, talabalik davri, Kibriyo opadan Qahhor domla chorbog'ining yarmini xarid qilish tafsilotlarini gapirib berdi. Ikkinchi kechasi Abdulla akaning qudasi Rustam ota Xondamirov bilan uzoq gurunglashdik. Uchinchi kechasi, deyarli tonggacha shoirning jigari, falsafa fanlari nomzodi, professor Abduraim Erkayev o'z ilmiy asarlari haqida so'zladi. To'rtinchi kecha esa to'laligicha akademik Nikolay Konrad, uning "G'arb va Sharq" asari, akademik, sharqshunos, Ermitaj direktori Iosif Orbelining Alisher Navoiy hazratlari adabiy merosini muhofaza qilishdagi mardligiga bag'ishlandi. Beshinchi kechada Nasriddin aka Nasaf va Kesh allomalari haqida hikoya qilib berdi.

Davlatimiz rahbari va hukumatimiz o'sha og'ir kunda marhumning oilasiga beqiyos yordam berdi, shoir tobuti solingan samolyot Frankfurt aeroporti orqali kelishi kerak edi. Samolyot Turkiya orqali uchgani uchun shoir tani bir kechayu bir kunduz oldin Toshkentga, o'zi sevgan "Do'rmon" bog'iga keltirildi.

Janozaga mamlakatning yarmi yig'ildi. Prezidentimiz bu marosimda ishtirok etib, zamonamizning zabardast so'z zargari haqida samimiy gaplar aytdi va shoir donolik bilan "Men o'zbek, sen esa qoraqalpoqsan, turklar dunyosida sen ham urpoqsan", degan Orolbo'yi zaminiga uchib ketdi.

... Keyingi gal Jizzaxga 1998-yilning 23-iyulida bordik. "Sayqal" degan maskanda viloyat yozuvchilari rahbari Sharofat Botirova, viloyat hokimi o'rinbosari Olimjon Javlonov, Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar bo'yicha o'rinbosari Muhammadjon Yusupov, O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva so'zga chiqdilar. 24-iyul kuni anjumanni Abdulla aka ochdi. Shavkat Mirziyoyev ajoyib ma'ruza qildi. Bu safar ham anjuman o'ta samarali bo'ldi. Guljamol Asqarova, Mehriniso Abdurahmonova, Burhon Shermuhammad uyushmaga qabul qilindi. Viloyat hokimi o'z qo'li bilan jami 51 ta — 7 ta birinchi, 6 ta ikkinchi, 15 ta uchinchi, 23 ta rag'batlantiruvchi mukofot berdi.

1999-yilning 6-9-avgust kunlari o'tgan navbatdagi anjumanga alohida to'xtalmasam bo'lmaydi. Bugungi ajoyib ijodkorlar Jamoliddin Muslim, Go'zal Begim, qoraqalpoqlik Bahamdulla Nurabullayev, Perdeg'aliy Dobilov g'olib bo'ldi. Bahamdulla keyin davlat arbobi bo'lib, Abdulla aka va men bilan birga "Aqchako'l ilhomlari" anjumaniga boshchilik qildi. Zomin va Aqchako'l anjumani ishtirokchilari orasidan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining 20 ga yaqin laureati yetishib chiqdi. 30 ga yaqin yosh Oliy adabiyot kursini bitirdi.

Tomchida quyosh aks etadi, deydilar. Keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida bevosita adabiyot ahliga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, ehtirom va e'tibor barcha ijodkorlarni birdek xalq, Vatan ravnaqi yo'lida birlashtirmoqda, ulkan marralar sari chorlamoqda.

Zomin seminari yuz yillar tursin, navqiron adiblar orasidan yangi asrning abdullalari, erkinlari, ibroyimlari yetishib chiqsin!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-746.
43927 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'afforov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Topshirildi — 03:15